

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

Geografiya kafedrası

Qo`lyozma huquqida

G'ofurova (Alijonova) Dilafruz Bahodirjon qizi

Andijon viloyati aholisi nikoh va ajralish koeffitsiyentlari

5440500- geografiya ta`lim yo`nalishi bo'yicha
akademik darajasini olish uchun yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: katta o`qituvchi Z. A. Temirov

Andijon - 2014 yil

MUNDARIJA

Betlar

KIRISH.....	3
--------------------	----------

BIRINCHI BOB. NIKOH VA AJRALISHNI O'RGANISHNING NAZARIY-USLUBIY

ASOSLARI.....	6
----------------------	----------

I.1 Nikohni demografik mohiyati turlari va nikoh ko'rsatkichlari.....	6
---	---

I.2 Ajralish va uning ko'rsatkichlari.....	18
--	----

I.3 Nikoh va ajralishni geodemografik o'rganish.....	29
--	----

IKKINCHI BOB. ANDIJON VILOYATIDA NIKOH VA AJRALISH

KO'RSATKICHLARI.....	34
-----------------------------	-----------

II.1 Viloyat aholisining nikoh va ajralish koeffitsiyentlari.....	34
---	----

II.2 Nikoh va ajralishning hududiy tafovutlari.....	42
---	----

II.3 Viloyatda aholining nikoh va ajralish ko'rsatkichlari: muammolar va yechimlar.....	47
---	----

HULOSA.....	52
--------------------	-----------

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	53
---------------------------------------	-----------

KIRISH

Bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligi.

Oila – jamiyatning kichik bo‘lagidir. Jamiyatning yomonlik va buzg‘unchiliklardan xoli, tinch va obod bo‘lishi, avvalo, shu kichik bo‘lakning tinchligiga bog‘liq. Oiladagi xotirjamlik va saodatni ta‘minlash uning a‘zolarining o‘z mas‘uliyatini anglashi va bajarishi bilan barqaror bo‘ladi.

Kelajak avlod jamiyatni, davlatni shakllantirishda qatnashishi bilan birga shu jamiyatda yashaydi va undan bahra oladi. Avlodning har tomonlama ma‘naviy, ma‘rifiy, iqtisodiy, huquqiy jihatdan barkamol ekanligi mamlakatni iqtisodiy rivojlanishi uchun asosiy omildir.

Nikoh oilaning vujudga kelishining birdan-bir asosi, omili bo‘lib xizmat qiladi. Nikoh munosabatlari qanchali sof, erkin, ixtiyoriy, shuningdek davlat tomonidan qo‘yilgan talablarga monand ravishda tuzilsa, albatta, shu oilaning mavqei, obro‘i, shuningdek ushbu oilada voyaga yetib kelayotgan farzandlar ham komil inson bo‘lib yetishadilar.

Mamlakatimizda oila qurish va nikohdan o‘tish masalasi qat’iy tartibga solingan. Prezidentimiz tomonidan “Mustahkam oila yili”, “Obod turmush yili”, “Sog‘lom bola yili” deb e‘lon qilingan ushbu yillarda bu masalalarga yanada katta e‘tibor qaratilmoqda. Zero, mamlakat Prezidenti I. A. Karimov takidlaganidek “Muhtasar aytganda, hammamizga ayon bo‘lishi tabiiyki, oila sog‘lom ekan-jamiyat mustajkam, jamiyat mustahkam ekan-mamlakat barqarordir”.¹

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi. Har qanday mamlakat taraqqiyoti o‘sha yurtdagi oilalar mustahkamligi, ularning barqarorligi va manfaatlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Nikoh va ajralishni ko‘plab fanlar, jumladan iqtisodchilar, iqtisodchi geograflar, demograflar, sotsiologlar, faylasuflar va boshqa fan vakillari o‘rganadi. Ular ichida iqtisodchi geograflar muhim o‘rin egallab,

nikoh va ajralish koefitsiyentlari va hududiy tafovutlari hamda muammolarni bartaraf etish yo‘llarini o‘rganadi.

O‘zbekistonning demografik taraqqiyoti, uning xususiyatlari, omillari va muammolari I. Mullajonov, R. Ubaydullayeva, M. Qoraxonov, E. Ahmedov, O. Otamirzayev, L. P. Maksakova, A. Soliyev, H. Salimov, A. Qayumov, M. Bo‘riyeva, O. A. Ergashev, E. Safarov, O. Saidahmedov, G. Murtazina, 3. X. Rayimjonov, R.K. Ortiqboyev va b. olimlarning i. t.larida

¹ Karimov I. A. Yuksak manaviyat- yengilmas kuch . –T.: “Manaviyat”, 2008

keng o'rganilgan. 1993 yildan O'zbekistonda BMTning Aholishunoslik jamg'armasi (UNFPA) o'z faoliyatini boshlagan.

Ishning maqsadi va vazifalari. Bitiruv malakaviy ishni bajarishdan maqsad Andijon viloyati aholisi nikoh va ajralish ko'effitsiyentlarini o'rganish orqali kelajakdagi viloyat aholisi soni haqida bashoratga ega bo'lish, ajralish va uni yuzaga kelish sabablarini, ajralishni kamaytirishga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Vazifalari:

- Andijon viloyati nikoh ko'rsatkichlarini va hududiy tafovutlarini aniqlash;
- Andijon viloyati aholisini ajralish ko'effitsiyentini va uning hududiy tafovutlarini, yuzaga kelish sabablarini taxlil qilish va istiqbolini belgilashning uslubiy asoslarini ishlab chiqish;
- Andijon viloyati oilani mustahkamlash va ajralishni kamaytirishga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqish va b.

BMI ning obyekti. Andijon viloyati aholisi nikoh va ajralish ko'rsatkichlari.

BMI ning predmeti. Andijon viloyati aholisi nikoh va ajralish holati xususiyatlarining geografik jihatlarini o'rganishdan iborat.

BMI ning nazariy uslubiy asoslari. Mamlakatimizning geograf va demograf olimlarining ilmiy ishlari, o'quv uslubiy qo'llanmalari hamda O'zbekiston respublikasi qonunlari, O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov asarlari va farmonlari, hukumatimiz qarorlari xizmat qildi. Tadqiqot jarayonida statistik, guruhlash, taqqoslash, bashoratlash uslublari qo'llanildi. Tadqiqotda, Andijon viloyati hokimligi va Andijon viloyati "Statistika Bosh boshqarma" si ma'lumotlaridan keng foydalanildi.

BMI ning ilmiy yangiliklari quyidagilarda o'z aksini topgan.

- Andijon viloyati aholisi nikoh ko'rsatkichlarini o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan va ochib berilgan;
- Andijon viloyati aholisi ajralish ko'rsatkichlari va muammolari yoritib berilgan.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilishi. BMI kirish, ikki bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, u 54 betni o'z ichiga oladi. Matnda 10 ta jadval, 6 ta rasm-sxema keltirilgan.

BIRINCHI BOB. NIKOH VA AJRALISHNI O'RGANISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI

I.1 Nikohni demografik mohiyati turlari va nikoh ko'rsatkichlari

Nikoh aholi geografiyasi, demografiya, sotsiologiya, huquq, tarix, psixologiya va boshqa fanlar tomonidan o'rganiladi. Nikohga ilmiy adabiyotlarda quyidagicha ta'rif berilgan: nikoh- ayol va erkak o'rtasidagi munosabatlarning ijtimoiy qo'llab-quvvatlangan va jamiyat tartibga soluvchi shaklidir. Nikohning huquqiy asoslari- nikoh tuzish va uni bekor qilish shartlari va tartiblari, er-xotinning huquq va majburiyatlari O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksida batafsil yoritilgan.

Demografiya fani boshqa fanlardan farqli o'laroq nikohning makro-ijtimoiy darajadagi asosiy parametrlarini tavsiflovchi insonlar va demografik hodisalar majmuini o'rganadi.

Nikoh- insonlar populyatsiyasida er-hotin juftligining shakllanish jarayonidir. Nikoh demografik tahlilda real yoki gipotetik avlodga nisbatan qaraladiva u qonun yoki an'anaga binoan nikoh yoshiga yetgan, lekin hali nikohdan o'tmagan insonlar (erkak va ayol) o'rtasida tuziladi.

Nikohning shartlari, shakllari va uni tuzish tartiblari dunyoning turli mamlakat va xalqlarida turlicha bo'lgan hamda tarixiy rivojlanish jarayonlarida o'zgarib turgan.

Jinsiy munosabatlarning dastlabki ijtimoiy tartibga solingan shakliibtidoiy jamoa tuzimining guruh nikohidir. Guruh nikohi- qabilalar o'rtasida tuzilgan nikoh bo'lib, qabila ichida har qanday jinsiy nikoh bo'lishiga ruxsat berilmagan. Korinishidan guruh nikohi dislokal, ya'ni er va xotin birga yashamasdan bitta maishiy xo'jalik jamoasiga mansub bo'lmagan. Keyinchalik

guruh nikohi torayib borib, avval bitta avlodga tegishli shaxslar, keyinchalik esa bir juft shaxslar orasida tuzilgan, ya'ni nikoh juftligiga aylangan.

Dastlab nikoh juftligida er va xotin birga yashagan, keyinchalik esa er xotining qabilasiga (matrilokal), keyinchalik xotin erning qabilasiga (patrilokal) o'tgan. Nikohning bu turlarida er va xotin o'rtasida mulklar alohida bo'lgan. Guruh nikohidagi ayrim belgilar saqlanib qolgan.

Dexqonchilik va chorvachilikka o'tish munosabati bilan erkak kishining xo'jalikdagi o'rni oshib brogan va natijada nikoh juftligi mustahkamlangan. Bu bilan monogam nikohga asos solinishiga sabab bo'lgan. Monogam nikohning qabila tuzimi parchalangandan so'ng nikoh monolokal turga, ya'ni er va xotin bitta oilada, bitta xo'jalikka mansub bo'lgan holga o'tgan. **Monogam nikoh** deganda, bir erkakning bitta ayol bilan jinsiy, xo'jalik va maishiy ittifoqi tushuniladi. Bu esa "monogam nikoh" tushunchasini "oila" va "uy xo'jaligi" tushunchalariga yaqinlashtiradi. Ko'plab hududlarda asta sekinlik bilan **patrilokal nikoh**, ya'ni xotin va farzandlarning butunlay erning hukmi ostida bo'lishligi tasdiqlandi. Tarixiy rivojlanish davomida nikohning asosiy shakli **monogamiya** bo'lib bordi. Shu bilan birga, ba'zi xalqlarda monogamiya bilan bir qatorda poligamiya (ko'p xotinlik, ko'p erlik) turi ham uchray turadi. Nikoh turlarining tasnifi 1-jadvalda keltirilgan. Nikoh tuzish va nikohdagi juftni tanlash turli ijtimoiy –iqtisodiy shart-sharoitlar bilan amalgam oshiriladi.

Quldorlik tuzimidagi mamlakatlarda nikoh faqatgina erkin fuqarolar uchun mumkin bo'lgan. Erkin kishilarning qullikdagi ayol bilan nikoh qilinishi qat'iy qoralangan. Feudal tuzimdagi davlatlarda esa hukmron sinflar o'rtasida gomogam nikoh tarqalgan. Dexqonlar o'rtasidagi nikoh esa zodagonlarning ruxsati bilan tuzilgan.

Aytish joizki, industrial jamiyat va ta'lim tizimining rivojlanishi hamda ayollarning ishlab chiqarishga ko'proq jalb etilishi nikoh jarayonining o'zgarishiga olib keladi. Chunonchi, ta'lim tizimining rivojlanishi ba'zi mamlakatlarda nikoh yoshining kattalashishiga olib keladi, natijada nikohga kirmagan, birgalikda yashovchi erkaklar va ayollar, nikohdan oldingi aloqalar va nikohsiz (noqonuniy) tug'ilgan farzandlar soni ko'payib boradi.

Shu o'rinda "birgalikda yashash" va "birgalikda yashovchilar" tushunchalarining mohiyatini yoritib o'tsak.

1-jadval.

Nikoh turlarining tasnifi

Nikoh turlari va mezonlari	Nikoh turning nomlanishi	Nikoh ta'rifi
Juftni tanlash	Ekzogamiya	Juft faqat begona gurugdan tanlanadi

	Endogamiya	Juft faqat o'zining guruhidan tanlanadi
Nikoh guruhi o'lchami	Monogamiya	Bir erkakning faqat bitta ayol bilan tuziladigan nikohi
	Poligamiya	Bir erkakning bir nechta ayol. Yoki bir ayolning bir nechta erkak bilan tuziladigan nikohi
	Poliginiya	Ko'p xotinlilik
	Poliandriya	Ko'p erlik
	Guruh nikohi	Bir nechta ayolning bir nechta erkak bilan nikoh ittifoqi
	Juft oila	Monogamiyaning bir turi
Er-xotinning yashash joyi	Patrilocal	Er va xotin erning ota-onasi uyida yashashi
	Matrilokal	Xotinning ota-onasi uyida yashashi
	Neolokal (dislokal)	Er va xotin alohida yashashi
	Unilokal	Er va xotin birgalikda yashashi
Er-xotinning tengsizligi	Tengsiz	Er va xotinning jamiyatdagi o'rni, yoshi va daromadlari bir-biridan farq qiladi
Nikoh uchun to'lov	Sotib olinadigan	Ayol kishiga Tovar sifatida qaraladi
	Sovg'a	Ayol kishi erkakning qarindoshlariga sovg'a qilinadi
	Ilohiy	Qizlarning hudolar bilan nikohdan o'tishi
	Qalin evaziga	Kelinning ota-onasiga qalin to'lash
O'g'irlash	O'g'irlash	Kelin yoki kuyovning o'g'irlanishi

Manba: Abdurahmanov Q., Abduramanov A. "Demografiya" T.: 2011

Birgalikda yashash- bu nikoh qonunchiligiga mos ravishda ro'yhatdan o'tkazilmagan jinsiy ittifoqdir. Birgalikda yashashjinsiy ittifoqning oddiy nomlanishi bo'lib, nikoh qonunchiligiga mos ravishda rasmiylashtirilmagan nioldir².

Boshqacha qilib aytganda, birgalikda yashash ikkita balog'atga yetgan shaxslarning hamkorlikda bir xo'jalikda yashashi bo'lib, nikoh yoki qarindoshlik munosabatlari bilan bog'lanmagan, lekin hissiy va jinsiy munosabatga ega bo'lganlardir.

Birgalikda yashovchilar quyidagi turlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- "hissiyotga berilganlar", lekin hali nikohga tayyor bo'lmaganlar;
- Nikohga kirishni hohlayotganlar va buni amalgam osgirishni kutayotganlar;

² Социальная энциклопедия.- Москва, 2000. -С. 344

- Iqtisodiy sabablarga ko'ra (qambag'allik) birga yashayotganlar;
- Doimiy nikohga muqobil sifatida birgalikda yashashni ma'qul ko'rayotganlar.

Agar birinchi uchta toifadagi odamlar nikohni bor holicha inkor etmasalarda, nikohga kirish hususida jiddiy qaror qabul qilish uchun bir-birini "sinash" kerak, deb hisoblayotganlar bo'lsa, to'rtinchi toifa odamlar u yoki bu sabablarga ko'ra, nikohga kirishni istamayotgan odamlarni o'z ichiga qamrab oladi. Birgalikda yashovchi ko'pgina odamlar bungacha qonuniy nikohda bo'lganlar, lekin ularning nikohdagi hayot tajribasi omadsiz bo'lib, ular ajralishga majbur bo'lganlardir. Ular ajralishni yana bir boshidan kechirishni va yana "tavakkal" qilishni istamaydiganlar, lekin o'zlari sevadigan hamrohi bilan jinsiy munosabatlarga qarshi bo'lmaganlardir.

Ko'pgina odamlar nikohning qonuniy ro'yhatdan o'tkazmasligining asosiy sabablari, avvalambor, ular nikohning umrboqiy tavsifga ega ekanligiga ishonmasligi, keyingi ajralish va mulkni bo'lib olish bilan bog'liq muammolarni keltirib chiqarishni istamaganliklari hisoblanadi.

Ilmiy manba'larda qayd etilishicha, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab birgalikda yashash taraqqiy eta boshlagan. Bunga oilaviy siyosat, ya'ni ersiz bolalarni tarbiyalayotgan ayollarga nisbatan turli imtiyozlar va yordam pullarining tadbqiq etila boshlashi sabab bo'lgan. O'z navbatida, bunday choralar birgalikda yashashni va nikohsiz tug'ilishni rag'batlantiradi.

Birgalikda yashash ko'pchilik hollarda past ta'lim darajasiga ega odamlar, shu jumladan, ota-onalari nikohda bo'lmaganlar yoki ularning nikohlari omadsiz bo'lganlari orasida keng tarqalgan. Masalan, bugungi kunda nikohga qobiliyatli aholi tarkibida noqonuniy nikohlar ulushi 31 foizni, (erkaklarda 33 va ayollarda 29%) ni tashkil etadi.

Aytish joizki, birga yashovchilarning ortishi mamlakatlarda jinsiy inqilobning rivojlanishiga olib kelmoqda.

Jinsiy inqilob- bu yoshlarning isyonkorona harakati bilan bog'liq jinsiy munosabatlar sohasida an'anaviy me'yorlar, cheklovlar va ta'qiqlarning tubdan buzilishidir.

Jinsiy inqilob rivojlanishining qator sabablari bor. Malumki, XX asrda g'arb mamlakatlarida ayollarning o'rni ma'lum darajada o'sdi. O'z navbatida bu ikkinchi jahon urushi bilan bog'liq, ya'ni erkaklar harbiy xizmatga ketib, ularning ko'pchiligi vafot etgan, yoki nogiron bo'lib qaytgan. Ayollar o'zlarining va farzandlarining tirik qolishi uchun butun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga majbur bo'lgan.

Ayol iqtisodiy munosabatlarda nisbatan mustaqil bo'ladi, bu iqtisodiyotga yo'naltirilgan jamiyatda ma'lum ijobiy oqibatlarga olib keldi, masalan, o'z taqdirini mustaqil tanlash imkoniyatlari vujudga keldi. Sevish va suyuqli bo'lish uchun turmushga chiqish shart emas degan tushuncha paydo bo'ldi. Ko'pgina ayollar ongli ravishda o'z mansablari bilan shug'ullangan

hamda o'zlarini "yurakka yaqin olgan do'stlari" bilan nikoh munosabatlarini bog'lamagan holda mustaqil hayot (Yevropada) olib borishni afzal ko'radilar.

Jinsiy inqilob qator demografik va ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarga olib keldi va ulardan biri oilaviy munosabatlarning o'zgarishi bo'ldi. Bunda ayollarning iqtisodiy tobelikdan ozod etish birinchi o'rinda turadi. Ko'pgina ajralishlarning tashabbuschilari ayollar ekani tasodif emas. Ular bunday qadamni qo'ygani holda o'zlarining hayotlarini yo'lga qo'yish va farzandlarini oyoqqa turg'azish uchun ishlab pul topishlariga ishonadilar. Shu bilan birga, 30 yoshdan oshgan ba'zi ayollar ersiz o'zi uchun farzand kerakligini ma'qul ko'radi.

Hozirgi kunda ayollar saqlanishi uchun 20 dan ortiq kontraseptik vositalar mavjud bo'lib, ular yordamida ayol javobgarlikni o'z zimmasiga olishi va istalmagan homiladorlikdan saqlanishi mumkin.

O'zib borayotgan oshkoralikka intilish yo'nalishi jinslarning nafaqat jamoatchilik, balki, shahsiy hayotda ham tenglikka egaligini ko'zda tutadi. Jinsiy inqilobning yana bir oqibatlaridan biri- jinslar o'rtasidagi munosabatlarda teng huquqli hamkorlikni anglash hisoblanadi. Mazkur jihatdan erkak va ayol o'rtasidagi (jinsiy aloqa boshlagan yoshi, jinsiy sheriklar soni, jinsiy aloqalar chastotasi va hk.) an'anaviy farqlar sezilarli tarzda qisqarmoqda.

Demograf olimlar ayollarning ijtimoiy holatlarini o'zgarishi, ayniqsa, ularning oiliy ma'lumotga ega bo'lishi, mansab sari intilishlari Yevropa xalqlari hayoti xavf ostida qolayotganligi haqida ogohlantirmoqda. Shu o'rinda aytilish lozimki, G'arbda boshlangan va o'z choqqisiga yetgan jinsiy inqilob boshqa mamlakatlar sivilizatsiyasiga, ularning jamoaviylik, oilaviylik, ijtimoiy xavsizlik, adolatlilik, qayg'urish, an'anaviylik va h.k etnik va ma'naviy qadriyatlarni hisobga olmagan holda otilib kirmoqda. Bu esa, mazkur mamlakatlarda demografik inqirozning yanada kengayishiga olib keladi.

O'zbekistonda nikoh oila kodeksi bilan tartibga solinadi. Respublikada nikoh fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qilish organlarida tuziladi. Diniy rasm –rusumlarga binoan tuzilgan nikoh huquqiy ahamiyatga ega emas. Nikoh tuzish nikohlanuvchilarning fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qilish organlariga ariza berganlaridan keyin bir oy o'tgach, shaxsan ularning ishtirokida amalga oshiriladi. Uzurli sabablar bo'lganda fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organi bir oy o'tgunga qadar nikoh tuzishga ruxsat berishi mumkin. Alohida holatlarda (homiladorlik, bola tug'ilishi, bir tarafning kasalligi) nikoh ariza berilgan kuni tuzilishi mumkin³.

Ko'pchilik chet mamlakatlarda nikoh, odatda fuqarolik huquqiy bitim hisoblanib, nikoh tuzish va oiladagi boshqa munosabatlarga oid savollar fuqarolik qonunchiligi asosida tartibga

³ Ўзбекистон Республикасининг Оила кодекси. –Т.: Адолат,2007.-8-б.

solinadi. Nikoh tuzishda bo'lg'usi er-xotinning mol-mulki umumiy yoki alohida bo'lishligiga katta ahamiyat beriladi.

Barcha jamiyatda nikoh tuzish uchun shaxslar nikoh yoshiga (qonunda ruhsat etilgan yoki an'analarga ko'ra) yetgan bo'lishlari lozim. Ko'pchilik mamlakatlarda nikoh yoshi nikohga kiruvchilarning jinsiy ,ruhiy va ijtimoiy yetukligi hamda shu mamlakat udum va an'alarini hisobga olgan holda qonun tomonidan belgilanadi. Ilgari nikohga kirish yoshi diniy me'yorlar bilan belgilangan hamda erkaklar va ayollar uchun bir xilda kichik bo'lgan .Katoliklarda nikoh yoshi ayollar uchun 12, erkaklar uchun 14, protestantlarda har ikkala jins vakaillari uchun 14 yosh,deb belgilangan.

Islomda nikohga kirish yoshi bir xil belgilanmagan.SHariyat qoidalariga ko'ra qiz bola 9 yoshda,o'g'il bola esa 12 yoshida balog'atga yetgan,deb hisoblangan hamda oila qurishi mumkin bo'lgan .

O'zbekistonda nikoh yoshi erkaklar uchun 18 yosh ayollar uchun 17 yosh etib belgilangan.Uurli sablar bo'lganida,alohida hollarda nikohga kirishni hohlovchilarning iltimosiga ko'ra nikoh davlat ro'yxatidan o'tkaziladigan joydagi tuman,shahar hokimi nikoh yoshini ko'pi bilan 1 yilga kamaytirishi mumkin ⁴.

Bazi mamlakatlarda nikoh yoshini tartibga soluvchi qonunlarning mavjud emasligi,qonunda ko'rsatilgan nikoh yoshining kichikligi,ayollarning oiladagi va jamiyatdagi huquqiy tengsizligini keltirib chiqaradi. Shu nuqtai nazardan 1967 yil 7 noyabrda BMT ning Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan deklaratsiyada to balog'atga yetmagunlariga qadar qizlarning nikohdan o'tishlarini ta'qiqlash va nikohga kirishning minimal yoshini belgilashga qaratilgan chora tadbirlarga alohida e'tibor berilgan.

Aholi orasida nikoh juftligining hosil bo'lish jarayoni birinchi va takroriy nikohga kirishni o'z ichiga oladi.SHu bilan birga,nikoh ''nikoh bozori ''dagi holat,nikoh aylanasing shakillanishi,nikohdagi tanlashning mavjudligiga bog'liq bo'ladi.

“Nikoh bozori”-bu nikohga layoqatli aholining turli guruhlaridagi nisbatlar tizimini ko'rsatuvchi shartli belgidir.Mazkur bozordagi holat nikohga kirish ehtimolligiga,muayyan hudud aholising jinsiy tarkibiga va nikohga layoqatli aholi tarkibidagi salohiyatli nikoh juftliklarining soniga bog'liq.

Nikoh aylanasi nikohdagi juftliklar yig'indisidan iborat bo'lib jamiyatdagi qonunchilik,ma'naviy_etnik me'yorlar,juftliklarning shahsiy sifatleri va ijtimoiy-iqtisodiy holatlari bilan belgilanadi.

⁴Ўзбекистон Республикасининг Оила кодекси. –Т.: Адолат,2007.-8-9 б.

Nikoh tanlovi berilgan nikoh aylanasi ichida nikoh juftliklarini tanlashdan iborat bo'lib, unga ijtimoiy- iqtisodiy, madaniy, psixologik va antropologik mezonlar ta'sir o'tkazadi hamda ularning har birining ta'siri vaqt davomida o'zgarib turadi.

Nikoh holatini tadqiq va tahlil qilishda uni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimidan foydalaniladi. Aytish joizki, nikoh haqidagi ma'lumotlar fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qilishni tahlil qilish natijasida olingan statistic ma'lumotlar, aholini ro'yhatga olish ma'lumotlari va tekshiruv natijalari asosida to'planadi. Fuqarolik holati ma'lumotnomalarini qayd qilish ma'lumotlari asosida nikoh bo'yicha mahsus statistik shakllar ishlab chiqilib, ular jarayonning asosiy tavsiflarini tadqiq qilishda baza vazifasini o'taydi. Aholini ro'yhatga olish jarayonida so'rovnoma to'ldirayotgan shaxsning nikohdagi holati so'raladi va natijada aholi orasidagi nikohdasilar soni aniqlanadi. Aholining nikoh holati o'rganilayotgan ijtimoiy-demografik jarayonning chastotasi, darajasi, davomiyligi, mustahkamligini belgilovchi tavsiflar asosida hamda nikoh tuzuvchi shaxslarning yoshlarini inobatga olgan holda o'rganiladi.

Nikoh holatini ifodalovchi demografik ko'rsatkichlar quyidagi guruhlarga ajratiladi:

- avlodlar orasidagi nikoh va nikohsizlik holatlarini tavsiflovchi ko'rsatkichlar;
- nikohga kirishni umumiy chastotasini o'lchovchi ko'rsatkichlar;
- nikohdan o'tuvchi shaxslarning yoshini belgilovchi ko'rsatkichlar;
- beva bo'lib qolish chastotasi;
- nikohning mustahkamligi va ajralishlar chastotasi;
- takroriy nikohlarning tarqalganlik ko'rsatkichlari;
- nikohdagi juftini tanlash hususiyatlari.

Nikoh holati- demografik tahlildagi aholining muhim tarkibiy tavsifi bo'lib, muayyan vaqtdagi nikohjarayonidir. Nikoh holati nikoh yoshida bo'lgan erkak va ayollarmutlaq sonining aholining o'rtacha yillik soniga nisbati orqali aniqlanadi. Masalan 1897 va 1926 yilgi aholi ro'yhatlarida nikoh holatini quyidagi turlari inobatga olingan: hech qachon nikohda bo'lmaganlar, nikohdagilar, bevalar va ajrashganlar. 1979 va 1989 yilgi aholi ro'yhatlarida ajrashganlar, lekin amalda birga yashayotgan shaxslar turkumi qo'shildi. Bundan tashqari 1939, 1959 va 1970 yillardagi aholi ro'yhatlarida aholi faqat nikohda bo'lganlar va bo'lmaganlar toifasiga ajratilgan.

Aholining nikoh holatiga aholining yosh-jinsiy tarkibi, birinchi nikohdan o'tuvchilarning o'rtacha yoshi, oldingi tug'ilish darajasi ta'sir etadi. Har bir avlod ma'um bir tarixiy sharoitda shakllanganligi uchun ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy omillar: aholining nikoh institutiga munosabatini belgilovchi ijtimoiy hulq me'yorlari, iqtisodiy inqirozlar, ijtimoiy va siyosiy ziddiyatlar (urush, inqilob, qatag'on) nikoh hoatiga ta'sir ko'rsatadi.

Nikoh holatiga yosh tarkibini ta'sirini ko'rsatuvchi eng qulay ko'rsatkich-bu nikohning u yoki bu holatidagi o'rtacha yashash muddatidir. Masalan, nikoh holatidagi o'rtacha yashash muddatini aniqlash uchun nikohda turgan ayollar va erkaklar sonini, o'zlari mansub bo'lgan yosh guruhlarining intervali kattaligiga ko'paytirilib, hosil bo'lgan ko'paytmalar qo'shiladi. Biroq bu usul bilan hisoblangan ko'rsatkichlarda nikoh holatiga o'limning ta'siri hisobga olinmagan bo'ladi. Mazkur ko'rsatkich nikohda turganlar haqidagi ma'lumotlarni standartlash imkonini beradi. Shu sababli ulardan qiyoslash uchun foydalanish mumkin. Bu interval ko'pincha 15-49 yoshdagi ayollarni reproduktiv vazifalarini amalgam oshirishlarini nikohda turganliklarining davomiyligiga bog'liqligini hisobga olish uchun qo'llaniladi.

Mutlaq nikohsizlik darajasi odatda aholining 50 yoshgacha bo'lgan va hech qachon nikohda bo'lmagan ayol va erkaklar soni bilan tavsiflanadi. Bu ko'rsatkich tadqiqot olib borilayotgan avlodlarning qancha qismi nikohga kirmaganligini ko'rsatdi (2-jadval).

2-jadval

Mutlaq nikohsizlik darajasi mezon

Mutlaq nikohsizlik ko'rsatkichi %	Nikohsizlik darajasi
5 dan kam	Past
5-9	O'rtacha
10 va undan yuqori	Yuqori

Manba: Abdurahmanov Q., Abduramanov A. "Demografiya" T.: 2011

Bugungi kunda O'zbekistonda aholining mutlaq nikohsizlik darajasi past hisoblanadi, ya'ni 5,0 % dan kamni tashkil etadi. Aholi ro'yhari ma'lumotlaridan olingan hisob-kitoblar shuni ko'rsatadiki, turli yoshdagi ayollar (real avlodagi) orasida mutlaq nikohsizlik darajasi faqat urush yillari va undan keyingi nikoh bozorining deformatsiyasi davridagina yuqori bo'lgan.

Nikohga kirishning umumiy chastotasini o'lchovchi ko'rsatkichlarga nikohning umumiy va mahsus ko'rsatkichlari kiradi.

Nikohning umumiy koeffisienti muayyan hududdagi aholi orasidagi bir yilda har mingta kishiga to'g'ri keladigan nikohlar sonini anglatadi.

Masalan: S-aholining o'rtacha yillik soni, T-ko'rsatkichni hisoblash lozim bo'lgan davr, V-tuzilgan nikohlar soni bo'lsa, b-nikohning umumiy koeffisienti quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$b=B/ST*1000$$

Ushbu ko'rsatkichning kamchiligi shundaki, u aholining yosh tarkibi va nikoh tarkibiga bog'liq bo'lib, nikohni hududlararo qiyoslashni qiyinlashtiradi.

Nikohning maxsus koeffisienti nikohga layoqatli yoshdagi aholi orasida alohida erkaklar va ayollarning nikohdan o'tish hodisasini baholash uchun qo'llaniladi. Bu ko'rsatkich nikohning

umumiy koeffisientiga o'xshash topiladi, faqat bunda kasrning suratida 16 va undan yuqori yoshdagi (nikhga layoqatli) aholi soni yoki ma'lum nikoh holati (hech qachon nikohda bo'lmaganlik)da bo'lgan aholi soni kiritiladi. Biroq, bu ko'rsatkichni ham aholining yosh tarkibi bo'yicha standartlashtirish lozim.

Nikoh holatini baholash uchun eng maqbul usul - bu nikohning yig'indi koeffisienti hisoblanadi. Mazkur koeffisient bir avloddagi insonlarning butun hayoti davomida tuzilgan nikohlarning shartli o'rtacha sonini tashkil qiladi. Bu koeffisient 16-69 yoshdagi ayollar va erkaklarning nikohdagi yosh koeffisienti yig'indisi tarzida, odatda bir kishiga nisbatan quyidagicha hisoblanadi:

$$NYuK = n \sum_{16}^{69} B_x / 1000$$

Bu yerda: B_x -yosh koeffisientlari;

n - yosh intervali uzunligi;

Nikohning yog'indi koeffisientini barcha nikohlar, shu bilan birga birinchi va takroriy nikohlar uchun ham hisoblash mumkin.

Odatda, birinchi nikohlar uchun nikohning yig'indi koeffisienti 16-49 yoshdagi aholi guruhlari uchun hisoblanadi.

Nikohning yosh koeffisienti alohida nikoh qurish chastotasini tavsiflaydi. U ikki usulda hisoblab topiladi.

Birinchi usul muayyan yoshda nikoh qurgan shaxslarning sonini, shu yashdagi nikohga layoqatli aholi soniga bo'lish orqali aniqlanadi. Ko'rsatkichlarning nikohning barcha alohida holatlari: bo'ydoqlar, turmushga chiqmaganlar, bevalar va ajrashganlar uchun hisoblash mumkin.

Ikkinchi usulda esa kasr suratiga shu yoshda bo'lgan aholining umumiy sonini qo'yish orqali topiladi.

Nikohning umumiy koeffisientini taxlil qilishda 50 yoshgacha bo'lgan aholi orasida birinchi nikohlarni hisoblash koeffisientlari muhim ahamiyatga ega. Agar bu koeffisientlar birdan yuqori bo'lsa, bu nikoh jarayonining yasharganligidan, birdan past bo'lishi nikohdan o'tishning orqaga surishning keng tarqalganligidan dalolat beradi. Nikohning yig'indi koeffisienti aholining nikoh tarkibi va nikoh taqvimiga bog'liq bo'ladi.

Nikohga kirishning o'rtacha yoshi-nikoh harakatining asosiy tavsiflaridan biri bo'lib, aholini roylatga olish va shu yili nikohdan o'tgan shaxslarning yoshlari haqidagi ma'lumotlarni o'zida jamlagan joriy hisob-kitoblar asosida topiladi. Buni bir necha ko'rsatkichlar orqali hisoblash mumkin.

1. O'rtacha arifmetik yosh. Bu ko'rsatkichning suratida turli yoshlarda tuzilgan nikohlar yig'indisi, maxrajida esa nikohdan o'tganlarning umumiy soni turadi:

$$x = \frac{\sum (x + 0,5) B_x}{\sum B_x}$$

Bu yerda x –indivdning nikohga kirish yoshi;

B_x - x yoshda nikohdan o'tganlar soni.

2. O'rtacha mediana yoshini aniq bir yilda tuzilgan nikohlarni 100000 ta nikohga taqsimlab topiladi. Shunda bu ko'rsatgich 100000 umumiy nikohlarning 50000 tasi nikohga kirish yoshiga mos keladi. Bu ko'rsatkichni hisoblash zahirida avvalgi va keyingi yoshlar o'rtasidagi nikohlar barobar taqsimlanadi, degan taxmin yotadi.

Nikoh holatini taxlil qilishda o'rtacha moda yoshi ko'rsatkichlaridan ham foydalaniladi. O'rtacha moda yoshi deganda, nikohlarning eng katta qismi tuzilgan yosh nazarda tutiladi. Masalan O'zbekistonda o'rtacha nikohga kirish yoshi 1930- yillarning o'rtalaridan to ikkinchi jahon urushi boshlanguniga qadar oshib borishga moyil bo'lgan. Urushdan so'ng bir muncha pasaydi. Biroq bu pasayish uzoq davom etmadi va ikki yil davomida (1948-1950) nikoh bozoridagi katta mutanosiblik ta'sirida o'rtacha nikohga kirish yoshi erkak va ayollarda ikki yoshga kattalashdi. Bugungi kunda es nikohga kirishning o'rtacha yoshi yil sayin ortib bormoqda.

Nikoh bozorida juft tanlashga ta'sir etuvchi ijtimoiy, demografik, madaniy va boshqa omillarni taxlil qilishda nikoh indeksidan foydalaniladi.

Nikoh indeksi- demografik ko'rsatkich bo'lib, nikohdagi juftlikning biron bir belgisi (yoshi, millati, ma'lumoti, daromadi va hk) ga qarab tanlash darajasini o'lchash uchun qo'llaniladi. Nikohning gomoganiya (tortilish, intilish) va geterogamiya (qochish) indeksleri farqlanadi. Bu indekslar M. V. Ptuxa tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, ularni tuzishda erkaklar va ayollar uchun alohida nikohlarni joriy ro'yhatga olishning quyidagi formula asosida hisoblangan ma'lumotlaridan foydalaniladi:

$$S' = (AT - CL) / L(T - C)$$

$$S'' = (AT - CL) / C(T - L)$$

Bu yerda S' , S'' – erkaklar va ayollar uchun gomogamiya indeksleri;

L , C – nikohga kirgan ayollar va erkaklar soni;

T – nikohlarning umumiy soni.

Ikkala jins uchun gomogamiya indeksi ayollar va erkaklar uchun topilgan indeksning geometrik o'rtacha qiymati bo'yicha aniqlanadi. Gomogniya indeksi +1 dan 0 gacha, ya'ni juftlikning ushbu hususiyatlari nisbatan maksimal moyillikdan butunlay befarqlikgacha o'zgarib

turadi. Agar nikoh juftlarini tiklashda ma'lum guruhdagi juftlikning nikohiga nisbatan salbiy munosabat kuzatilsa, ya'ni

$(AT-CL) < 0$, geterogamiya indeksi quyidagicha aniqlanadi:

$$a = (AT-CL)/CL = AT/CL - 1$$

Shunday qilib, aholining nikoh tarkibini taxlil qilishda nikohning umumiy, mahsus, yosh va yig'indi koeffitsientlari va nikoh indeksidan foydalaniladi.

I.2 Ajralish va uning ko'rsatkichlari

Ajralish avloddagi nikoh juftliklarining nikohni bekor qilishi natijasida yuzaga keladigan demografik jarayondir. Bu er va xotinning hayot vaqtidagi nikohning bekor qilinishidir. Ajralish ham nikoh singari demografiyadan tashqari yana bir qator fanlar: xususan, huquq, sotsiologiya, psixologiyaning tadqiqot predmetlari jumlasiga kiradi. Nikohning huquqiy jihatdan bekor qilinishi to'g'risidagi ma'lumotlar manbai bo'lib, fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qilish organlarining ma'lumotlari xizmat qiladi.

Ajralish murakkab ijtimoiy jarayon bo'lib, uning ijtimoiy-demografik omillari hali yetarli darajada o'rganilmagan. Ajralish qonuniyatlarini tushuntiruvchi konsepsiya ishlab chiqilmagan.

Ajralish qadimda islom aqidalariga ko'ra amalga oshgan va bu jarayon "taloq" deb atalgan. "Taloq" arabcha so'z bo'lib ozod bo'lmoq, ajralmoq degan ma'noni bildiradi. Islom aqidalariga ko'ra, taloq erkak tomonidan aytilmaguncha er xotinning ajralishi qonuniy hisoblanmagan. Agar ayol tomonidan nikohning bekor etilishi talab qilinsayu, erkak bunga norozi bo'lsa, taloq kuchga kirmagan. Shariat qonunida erkak "taloq" so'zini hushyor va sog'lom vaqtda aytib, o'zi iqrar bo'lganidagina taloq qonuniy bo'lgan⁵.

Nikohning barqarorligi yoki ajralishga nikohgacha va nikoh davridagi qator omillar ta'sir ko'rsatadi (3 jadval). Nikohning barqarorligiga ta'sir etuvchi nikohgacha omillar keltirilgan.

3-jadval.

Nikoh barqarorligiga ta'sir etuvchi nikohgacha bo'lgan omillar

Bevosita	Aksincha
Erning oliy ma'lumoti	Erkaklar va ayollarning erta nikohga kirishi
Oilaning umumiy ijtimoiy ahvoli	Nikohga kech kirish

⁵ Бўриева М. Р. Ўзбекистонда оила демографияси. – Т.: университет 1997.-84 б

Ota-onalarning oilaviy hayoti muvaffaqiyatlarining respondentlar tomonidan ijobiy baholanishi	Xotin yoshining erdan katta bo'lishi
Nikohdan oldingi tanishuvning davomiyligi	Xotinning oliy ma'lumoti
Bir-biri haqidagi birinchi o'zaro ijobiy taassurotlari	Er va xotinning kelib chiqishi shaharlik xotin yoki er shaxarlik va aksincha
Ish, o'qish sharoitida tanishuv	To'liq bo'lmagan oilada tarbiya topish
G'amho'rlik	Bo'lg'usi er-xotinlarda uka, aka, opa-singillarning yo'qligi
Nikoh tuzish tashabbusining erkak kishi tomonidan berilishi	Tanishuv davridagi munosabatlarning mustahkam emasligi
Uzoq o'ylamasdan (2 haftagacha) nikoh taklifini qabul qilish	Nikohdan avvalgi homiladorlik
Nikohni ro'yhatga olinishining to'y marosimi bilan kuzatilishi	Ota-onalarning nikohga salbiy munosabati

Manba: Abdurahmanov Q., Abduramanov A. "Demografiya" T.: 2011

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, erkak va ayolning erta nikohga kirishi, nikohga kech kirish, xotin yoshining erdan katta bo'lishi, xotinning oliy ma'lumotga ega bo'lishier-xotinning kelib chiqishi, nikohdan oldingi homiladorlik kabi nikohgacha bo'lgan omillar ajralishga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Nikohgacha bo'lgan omillar qatori, nikoh davridagi omillar ham ajralishga sabab bo'ladi (4-jadval).

4-jadval.

Nikohning barqarorligiga ta'sir etuvchi nikohdagi omillar

Bevosita	Aksincha
Ayolning yuqori reproduktiv holati	Er-xotinning reproduktiv holatini bir-biriga to'g'ri kelmasligi
Oilada ota-onalarning mavjudligi	Er-xotinning spirtli ichimliklar iste'mol qilishi
Asosiy oilaviy muammolarni birgalikda yechishi	Ma'naviy muloqotga er-xotin xulqining to'g'ri kelmasligi
Er-xotinning bo'sh vaqtini birgalikda o'tkazishi	Bir-birini qo'llab-quvvatlashning yo'qligi

Hayotning turli jabhalarida nizolarning kamligi	Jinsiy munosabatlardan qoniqmaslik
Er-xotin bir-birini yuqori xurmat qilishi va hissiy qabul qilishi	Oilaga ota-onaning salbiy munosabati

Manba: Abdurahmanov Q., Abduramanov A. “Demografiya” T.: 2011

Jadval ma’lumotlaridan ko’rinib turibdiki, ayolning yuqori reproduktiv holari, asosiy oilaviy muammolarni yechishi, er-xotinning bo’sh vaqtini birgalikda o’tkazishi, nikohning barqarorligiga olib keluvchi omillar hisoblanadi. Shu bilan birga, nikoh davrida er va xotinning reproduktiv holatining bir-biriga to’g’ri kelmasligi, spirtli ichimliklar iste’mol qilishi, ma’naviy muloqatda er va xotinning hulqi to’g’ri kelmasligi, jinsiy munosabatlardan qoniqmaslik va ota-onaning salbiy munosabati ajralishga sabab bo’ladi.

Ajralishning demografik mohiyatini ochishda ajralish chastotasini o’lchovchi ko’rsatkichlardan foydalaniladi. Ular jumlasiga ajralishning umumiy, maxsus, yosh va yig’indi koeffisientlari kiradi. Shuningdek, ajralishning mahsus koeffisienti ham qo’llaniladi. Bu koeffisient aholini ro’yhatga olish va joriy ro’yhatlar ma’lumotiga ko’ra davr mobaynidagi ajralishlar sonining shu davr o’rtasidagi nikoh juftliklarini o’rtacha soniga nisbatiga teng.

Ajralishning barcha koeffisientlari ichida nafaqat ajralishlar chastotasi, balki nikohni bekor qilishda uning davomiyligini ham aniqlash imkonini beruvchi eng aniq ko’rsatgich – bu nikohning berilgan davomiyligining mahsus koeffisientidir. Koeffisient shu yili (ma’lum yilda) ma’lum muddat davom etgan nikohlarning bekor qilinishi sonini, ilgari tuzilgan nikohlar soniga nisbati bilan hisoblanadi.

Takroriy nikoh – bu ajrashganlar va bevalarning tuzgan nikohidir. Alohida ajrashish darajasi yuqori bo’lgan sharoitda ular qoplovchi rol o’ynaydi. Takroriy nikoh koeffisientlari birinchi nikoh koeffisientlariga mos holda bevalar va ajrashganlar, takror nikohga kirganlar soni aholi ro’yhatlaridagi ma’lumotlar asosida hisoblanadi.

Yangi nikohga kirish chastotasi takroriy nikohning mahsus va yosh koeffisientlari yordamida aniqlanadi. Nikohlarni tugatish va takror nikohga kirish hodisalarini o’zaro taqqoslash takroriy nikohni, ajralish va bevalikni qay darajada qoplanganligini baholashga yordam beradi.

Takror nikohga kirishning o’rtacha yoshi nikohga kirish ketma-ketligi yoshining o’rtacha miqdoriga bog’liq bo’ladi.

Nikoh ikkita sabab bilan to'xtatilishi mumkin: ajralish tufayli va umr yo'ldoshlardan birining o'limi o'limi sababli. Shuning uchun nikohlarning to'xtatilish ko'rsatkichlari ajralish hamda o'lim va beva qolish ko'rsatkichlariga bo'linadi.

Ajralish jarayoni ajralishning maxsus ko'rsatkichlari yordamida quyidagicha hisoblanadi:

$$u = \frac{D}{\bar{S}_t}$$

Bu yerda: u-ajralish koeffisienti;

D-esa t vaqtdagi ajralishlar soni;

$\bar{S}_t$ –t vaqtdagi uylanganlar (turushga chiqqanlar)ning o'rtacha soni.

Aniqki, ajralishlarning maxsus koeffisienti erkaklar va ayollar uchun bir hil bo'ladi. Ajralishning maxsus koeffisientlari har bir yosh uchun va har bir nikoh davomiyligi uchun alohida hisoblab chiqilishi mumkin, lekin ularni bir vaqtning o'zida nikoh davomiyligi va turush o'rtoqlaridan birining nikohga kirish yoshi bo'yicha hisoblab chiqish maqsadga muvofiqdir. Bunday holda ular ajralish ehtimoliga aylantiriladi va ajralish jadvalini tuzish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Ajralish jadvallari nikoh davomiyligi bo'yicha har bir nikohga kiruvchi yoshlar uchun alohida tuziladi. Ajralish jadvallarini tuzishda nikoh jadvalini tuzishdagi kabi usul qo'llaniladi: u sof (faqat ajralishlarni hisobga olish va nikoh buzilishining boshqa vaziyatlarini tushirib qoldirish) va kombinatlashgan (ajralishlarni, o'lim va beva qolishlarni ham hisobga olishi) jadval bo'lishi mumkin.

Nikohning mustahkamligi va davomiyligini tavsiflab beruvchi jadvallarning bunday majmui katta ahamiyatga ega, lekin ular kerak bo'ladigan statistik ma'lumotlarning mavjud emasligidan kamdan-kam hollarda tuziladi.

Bevalik ko'rsatkichlarining tuzilishi yetarli darajada oddiy bo'lib, ular har bir yilda beva qolgan ayollarning soni ushbu yilda o'lgan erkaklarning soniga teng bo'ladi (yoki aksincha). Shuning uchun ayollar bevaligining maxsus koeffisienti V quyidagiga teng:

$$V_t = \frac{{}^mM_t^m}{\bar{W}_t^m}$$

Bu yerda: $\bar{W}_t^m$ - t yildagi erli ayollarning o'rtacha soni; aniqki, monogamiya sharoitlarida erli ayollarning soni uylangan erkaklarning soniga teng, shuning uchun erkaklar va ayollar bevaligining maxsus koeffisientlarining maxrajlari teng.

Nikoh to'xtatilishining maxsus koeffisienti uchta koeffisient yig'indisidan, ya'ni, ajralishning, erkaklar va ayollar bevaligining maxsus koeffisientlaridan tashkil topadi:

$$P_t = U_t + V_t^m + V_t^{\text{ж}} = \frac{D_t + {}^{\text{н}}M_t^m + {}^F M_t^m}{\bar{S}_t^{\text{н}}}$$

Agar yil davomida tuzilgan nikohlar sonini mavjud nikohlarning o'rtacha soniga tenglashtirsak, nikohlar soni o'sishining koeffisienti kelib chiqadi, agar undan nikohlar buzilishining koeffisientini olib tashlasak, nikohlar soni sur'atining koeffisientini chiqarib olish mumkin bo'ladi:

$$R_t = b_t - P_t = \frac{B_t - D_t - {}^{\text{н}}M_t^m - {}^F M_t^m}{\bar{S}_t^{\text{н}}}$$

Ushbu koeffisientni nikohga kira oladigan yoshdagi aholining tabiiy o'sishi sur'ati koeffisienti bilan solishtirish mumkin, bu esa aholining nikoh tarkibi yaxshilanayotganligi yoki yomonlashayotganligini baholash imkonini beradi. Chunki, odatda erining yoshi ayolnikiga nisbatan katta, erkaklarning asosan jismoniy og'ir mehnatda band bo'lganligi bois, erkaklar o'limi yuqori bo'ladi. Natijada ayollarning bevalik koeffisienti erkaklarnikiga nisbatan yuqoriroq bo'ladi. Albatta, bevalikning maxsus koeffisientlari nikohda bo'lganlarning tarkib topgan yosh tarkibiga bogliq bo'ladi. Shuning uchun tahlilda uning ta'sirini e'tiborga olish lozim.

y yoshdagi erkak bilan nikohda bo'lgan x yoshdagi ayol uchun beva qolish ehtimoli yoshdagi uylangan erkakning o'lim ehtimoliga bog'liq bo'ladi.

Agar x yoshdagi ayolning beva qolish ehtimolini V_x bilan belgilab, yoshdagi erkaklar bilan nikohda bo'lgan x yoshdagi ayollarning hissasini J_y belgilab olsak, unda quyidagiga ega bo'lamiz:

$$V_x = \sum J_y * q_y^m$$

Agar nikohning saqlanib qolishini ma'lum bir vaqtdan keyingi nikoh tuzilishi orqali qarab chiqadigan bo'lsak, saqlanib qolingani nikohlar sonini osongina o'lim jadvali ko'rsatkichlaridan chiqarib olishimiz mumkin. Masalan, agar T yilda yoshdagi erkaklar bilan x yoshdagi ayollar o'rtasidagi $U_{x,y}$ nikohlar tuzilgan bo'lsa, t yildan so'ng ulardan quyidagilar saqlanib qoladi:

$$U_{t,x,y} = U_{T,x,y} \frac{L_{x+t}}{L_x} * \frac{L_{y+t}^m}{L_y^m}$$

Masalan, agar 25 yoshdagi erkaklar bilan 20 yoshdagi ayollar o'rtasidagi 10000 ta nikoh tuzilgan bo'lsa, 30 yildan so'ng eri 55 yoshga va xotin 50 yoshga to'lganda, bunday nikohlardan 77,35 foizi qoladi:

$$100000 * \frac{75393}{91045} * \frac{87382}{93546} = 7735$$

Xuddi shu tamoyil asosida nikoh davomiyligi bo'yicha bevalik jadvalini tuzish mumkin. Agar bir yilning o'zidagi er va xotinning o'lim ehtimolini hisobga oluvchi aniqliklarni e'tiborga olmaydigan bo'lsak, nikohning T yildagi xotin uchun beva qolish ehtimoli quyidagiga teng bo'ladi:

$$V_t = \sum B_x \frac{L_{x+t+1}^M}{L_{x+1}^M}$$

Bu yerda:

L_x^M – uylangan erkaklar uchun o'lim jadvali bo'yicha ststsiionar aholi soni. B_x ni taqsimotni nikoh jadvali bo'yicha olish mumkin.

Nikoh davomiyliklar qatori uchun beva qolish ehtimoliga ega bo'la turib, nikohlarning boshlang'ich miqdorini 10000 ga teng deb e'tiborga olgan holda beva qolish jadvalini tuzish demokratik jadvallar uchun hos bo'lgan barcha ko'rsatkichlarni yoyib yuborish mumkin. Bunda, murakkablik shundan iboratki, nikohda bo'lganlarning o'limlari bo'yicha ma'lumotlar juda kam bo'lib, o'lim jadvalini barcha aholiga jisbatan qollanishi esa beva qolishlikni ko'paytirib yuboradi.

Shunday qilib, ajralish er va xotin hayot sikllaridagi nikohni bekor qilishi hisoblanib, ajralish chastotasini o'lchovchi ko'rsatkichlar yordamida holatga baho beriladi.

Ajralish muammosi hozirgi kundagi eng muhim ijtimoiy muammolaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun ko'plab jaxon mamlakatlaridagi kabi, O'zbekistonda ham ajralish muammosini o'rganishga katta e'tibor qaratilmoqda. Ajralish muammosini bir qator fan vakillari, jumladan: demograflar, iqtisodchilar, sotsiologlar, psixologlar, huquqshunoslar va boshqa fan sohalari mutaxassislari o'rganmoqdalar. Tadqiqotlardan ko'zlangan asosiy maqsad ajralish sabablari, omillari, motivlarini o'rganish, ularni bartaraf etish, ajralishlarning salbiy asoratlarini kamaytirishga qaratilgan. Oilalarning buzilishi tufayli nafaqat oila a'zolari va farzandlari, balki jamiyat ham ko'p zarar ko'radi. Ajralishlar ko'plab noxush hodisalar: noto'liq oilalar sonining ortishi, bolalar va o'smirlar o'rtasida qonunbuzarlikning ko'payishi, pedagogik

nazoratsiz qolgan bolalar sonining ortishi, yolg'izlik, sobiq er-xotinlar va qarindoshlarning o'zaro munosabatlarining yomonlashuvi kabilarning yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin.

Dunyoning ayrim davlatlarida, jumladan, Italiya, Niderlandiyada yaqin-yaqin zamonlargacha ajralish huquqiy jihatdan nihoyatda murakkab jarayon edi. Biroq bu usul ham oila mustahkamligini ta'minlashda kutilgan natijalarni bermaydi. Balki ajralishni taqiqlash, ajralish erkinligini bermaslik, o'z navbatida nikoh yoshining o'sishini, oila qurmaslik, nikohgacha va nikohdan tashqaridagi jinsiy aloqa, psixologik nosog'lom oilalar miqdorining ortishi nikoh-oila munosabatlari zahirida yuzaga keladigan jinoyatlar, qotillik, xiyonat kabilarning ortishiga olib keladi. Shuning uchun ham hozirgi vaqtda ajralish erkinligi deyarli barcha davlatlar nikoh-oila qonunchiligida qayd etilgan.

Ajralishni taqiqlash va unga rasmiy ravishda xalaqit qilish emas, balki ajralishlarning oldini olish, unga olib keladigan sabablar va omillarni bartaraf etishdir. Ajralishlarning o'ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlari mavjuddir. Bu xususiyatlar oilalarning buzilishiga olib keladigan sabablar, ularning amalga oshirish jarayoni, oqibatlar, ajralishgacha va undan keyingi davrlardagi er-xotinlarning holati kabilarda ifodalanadi. Shunday xususiyatlardan biri ajralish niyatini bildirib rasmiy tashkilotlarga murojaat qiluvchi ajralish tashabbuskori kim ekanligida namoyon bo'ladi. Sharq oilalarida, ayniqsa o'zbek va qishloq oilalarida ajralish tashabbuskori ko'proq erkaklar bo'ladilar va aksincha, Yevropa xalqlari oilalarida, yosh oilalarda va urbanizatsiyalashuv darajasi yuqori bo'lgan shahar oilalarida ajralish tashabbuskori ko'proq ayollar bo'ladilar.

O'zbekistonda kuzatilayotgan ajralishlarning asosiy sabablari quyidagi obyektiv omillarga bog'liq bo'lishi mumkin:

-birinchidan, qishloq joylarda ajrashgan ayol erkakka nisbatan jamoatchilik tomonidan ko'proq tanqidiy muhokama qilinadi.

-Ikkinchidan, qishloq joylarda ajralishgandan so'ng ayollarning moddiy holati erkaklarga nisbatan yomonlashadi, o'zbek millatidagi o'ziga xos urf-odatlar o'zbek ayolining uy-joylarni eriga qoldirib, o'z ota-onasini (uning akaukalari o'z oilasi, xotini, bolalari bilan yashayotgan va ajrashgan ayol uchun ahvolni yanada jiddiylashtiruvchi joyga) borib yashashga majbur bo'ladilar.

-Uchinchidan, qishloq ayollarida ajralishgandan so'ng qayta oila qurish imkonini nihoyatda kamdir. Mana shu obyektiv sabablarni hisobga olgan holda qishloq joylardagi o'zbek ayollari muammoli (er-xotin orasidagi munosabatlar nihoyatda ziddiyatli, nizoli, ular orasidagi mehr-oqibat yetarli ifodalanmagan oila) nikohga ham ko'nikib yashayveradilar. Ba'zi ayollar, aslida eri bilan birga yashamayotgan bo'lsalarda (hatto yillab), erlaridan «o'ch olish» maqsadida, uning boshqaga uylanishiga yo'l qo'ymaslik uchun rasmiy ravishda, sud orqali ajrashishga

ko'nmaydilar. Qishloq joylardagi ajralishgan erkaklar ayollarga nisbatan birmuncha intiyozli vaziyatda bo'ladilar: ular ajralishgandan so'ng o'z yaqinlari tomonidan ko'proq qo'llab-quvvatlanadi. Bolasi yo'q bo'lgan holatda esa ajralishgan erkak uchun turmushga chiqmagan ayolga uylanish sezilarli darajada muammo tug'dirmaydi.

Bundan tashqari u ajralishdan so'ng oldingi sharoitda — o'z (ota-onasining) uyida qoladi va navbatdagi yangi oila qurish imkoniga ega bo'ladi. Shuning uchun qishloq joylarda ajralishlarning tashabbuskorlari ko'proq erkaklar bo'ladilar.

Agar ajralishlarning ayol va erkakka ko'rsatadigan asosiy ta'sirlarini sanaydigan bo'lsak, ular quyidagicha bo'ladi:

- Jamiyat uchun — noto'liq oilalar soni ko'payadi;
- oilalararo yoki qarindoshlararo adovat yuzaga keladi;
- bir jinsning ikkinchi jinsga nisbatan nafrati paydo bo'ladi;
- teritanosil kasalliklarning ortishi kuzatiladi.

Mutaxassislarning maxsus tadqiqot natijalariga ko'ra aksariyat holda ajralish ayollarga qiyinchilik tug'diradi. Ya'ni ajralish erkaklarga nisbatan ayollarni kelgusi oilaviy baxtiga, bolalarning tarbiyasiga, oila budjetiga, ayolning salomatligiga, o'z ota-onasi bilan bo'lgan ota-on va farzand munosabatlariga, ajralishgan ayolning ruhiyatiga kuchli salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga ayol uchun katta hayotiy muammolarini — qayta oila qurish va yolg'izlik muammosini keltirib chiqaradi. Bu qishloq va shahar ayollarida deyarli bir xil ifodalanadi. Ammo shaharlik ayollar shahar turmush tarzida jinsiy xulq jihatdan birmuncha erkin bo'lganlari hamda o'z kasb faoliyatlari bilan faol shug'ullanganlari tufayli qishloq ayollariga nisbatan yolg'izlikdan kamroq jabr ko'radilar.

Biroq er-xotinning ajralishi sababli yuzaga kelgan noto'liq oilalarda «tirik yetim» bolalar qoladi. Birinchidan, «tirik yetimlik » jamoatchilik o'rtasida, ayniqsa, bolalar jamoalarida (bog'chada, maktabda, tengdoshlar davrasida) nisbatan kuchliroq qoralanadi. Ikkinchidan, bunday oilalarda ota yoki ona tomonidan, ularning yaqinlari tomonidan sobiq turmush o'rtog'I sha'niga, uning shaxsiyatiga salbiy bo'yoqlar beruvchi munosabatlar shakllanadi. Sobiq er-xotinlar tomonidan bir-birlarini qoralovchi fikr-mulohazalar ko'proq bildiriladi. Bular, albatta, bu toifa noto'liq oilalardagi o'zaro munosabatlarning shakllanishida qator noxushliklarni yuzaga kelishiga asos bo'ladi. Ajralish faqatgina ajralgan er-xotinlar emas, balki ajralish oqibatida otasiz yashayotgan farzandlarga ham salbiy ta'sir ko'rsatar ekan.

Ma'lumki, o'zbek oilalarida ajralishlar miqdori boshqa millatlar, masalan rus oilalarinikiga qaraganda ikki marta kam. Lekin har bir ajralishgan oilaga to'g'ri keladigan «tirik yetim» bolalar soni o'zbek oilalarida 2—2,5 martaga ko'p. Shuningdek ajralish koeffisientining

past ko'rsatkichga ega ekanligi o'zbek oilalarining o'ziga hos milliy xususiyatlari bilan ifodalanadi.

Aksariyat hollarda ajralish sababini tahlil qilinganda quyidagi asosiy sabablar keltiriladi:

- xarakterlari mos tushmaslik;
- o'zga shaxsning aralashuvi;
- qo'pollik;
- moddiy qiyinchilik;
- ichkilikbozlikka berilish;
- yashash sharoitining noqulayligi;
- ota-onalarning noo'rin aralashuvi va h. k.

Tahlil natijalariga ko'ra, vaziyatga qarab, bunday ko'rsatkichlar ba'zilar sabab, ba'zilar uchun esa bahona vazifasini o'taydi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, oiladagi ma'naviy ruhiy iqlim qanchalik mustahkam va er-xotinlar bir-birini qanchalik yaxshi tushunsalar bu «sabablar» (bahonalar) oilaning inqiroziga asosiy sabab bo'la olmaydi. Yoshlar (er-xotin) o'rtasidagi munosabat qanchalik noxush bo'lsa bu bahonalar shunchalik kuchli va salbiy ta'sir ko'rsatadi va bu holatlar ajralishlarning sababi bo'lib qolishi mumkin. O'zbek oilalarida: «turmush o'rtog'ining qo'polliigi», «turmush o'rtog'iga nisbatan qo'pol munosabatda bo'lish», «turmush o'rtog'ining ota-onasi va boshqa qarindoshlarining aralashuvi», «turmush o'rtog'lardan birining oilani umumiy masalalariga befarq qarashi» kabilar ko'proq sabab bo'lsa, Yevropa xalqlari oilalari uchun esa ajralish sabablari sifatida aksariyat hollarda, ichkilikbozlikka berilish, er-xotin xiyonati, xarakterlarning mos kelmasligi kabilar qayd etiladi.

Ajralishlarning sabablarini aniqlash maqsadida o'tkazilgan tadqiqotlarning ko'rsatishicha, o'zbek oilalarida ajralishlarning motivlari sifatida ko'rsatilgan ta'sirlardan asosiylari, yuqorida qayd etilganidek, «turmush o'rtog'ining qo'polliigi», «ota-onalar va boshqa qarindoshlarning aralashuvi», «bir-biriga nisbatan befarqlik», «er-xotindan birining oilaviy masalalarga nisbatan befarqligi» kabilar ajralish sabablari sifatida ko'rsatilgan. Shunday qilib, ajralish muammosi hozirgi paytda jamiyatning eng dolzarb muammolaridan biri bo'lib qolmoqda.

I.3 Nikoh va ajralishni geodemografik o'rganish

Oila shakllanishining hududiy xususiyatlari va tarkibini o'rganish aholi geografiyasining muhim vazifalaridan hisoblanadi. Oilaning tashkil topishida esa, o'z navbatida, nikoh va ajralish jarayonlari muhim omildir.

Nikoh erkak bilan ayolning tarixan tarkib topgan, jamiyat tomonidan muayyan tartibga solib turadigan oʻzaro hamda bolalariga nisbatan munosabatlari shaklidir. Nikoh oʻz evolyutsiyasiga, turlariga ega boʻlgan sotsial jarayondir.

1-rasm





Diagramma: <http://www.census.gov> saytidan olib qayta ishlangan

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 1960-2010 yillar davomida 18 yoshdan yuqori yoshdagi aholining oilaviy holatida oila qurganlar salmog'i 72% dan 51% ga pasaygani holda oila qurmaganlar salmog'i 15%dan 28 % ga ko'tarilgan. Bu shundan dalolat beradiki, nikohga kirish yoshi ortib bormoqda. Shu bilan birgalikda kuzatilayotgan yillar mobaynida ajrashgan aholi salmog'i 5% dan 14% ga yoki qariyb 3 barobar ortganligi kuzatilmoqda (6-jadval).

Ayollar oila qurishining yosh guruhleri bo'yicha chizma sxemasi

2-rasm



Jadval: <http://www.census.gov> saytidan olingan

Nikohlanish jarayoni turli xil mamlakatlarda o'ziga xos bo'lib, har bir millatning milliy qadriyatlarini aks ettiradi. U insoniyat ijtimoiy taraqqiyotining turli davrlarida har xil ko'rinishlarga ega bo'lib, o'sha davlatlarning qonunlari asosida asrlar davomida o'zgarib, takomillashib borgan. Natijada, o'rtacha turmush qurish jahonning turli mamlakatlarida 12-14 yoshdan to 21-22 yoshgacha belgilangan, ba'zi davlatlar bundan mustasno.

Jahon aholisining oila qurish yoshining ortib borishi

3-rasm

Median Age at First Marriage, 1960-2011

in years



Source: Current Population Survey, March and Annual Social and Economic Supplements.

PEW RESEARCH CENTER

Jadval: <http://www.census.gov> saytidan olingan.

Nikohni qayd etish va ro'yxatga olish fuqarolar tartibi qonun-qoidalar va diniy urf-odatlariga ko'ra amalga oshiriladi. Masalan, katolik va budda ruhoniylariga uylanish ma'n

etilgan. Shuning uchun ham oldingi davrlarda Mo'g'listonda, Tibetda nikohlanish jarayoni boshqa davlatlarga qaraganda kam bo'lgan. Undan tashqari, turmush qurish yoshini ko'p hollarda ruhoniylar belgilashgan. Masalan, katolik cherkovlarida qizlar uchun 12 yosh, o'g'il bolalar uchun 14 yosh, protestantlar cherkovida esa ikkala jins uchun ham 14 yosh, Islomda esa shariat qonuniga ko'ra qizlar 9 yosh, o'g'il bolalar 15 yoshda turmush qurishi mumkin, deb belgilangan.

1928 yil O'zbekistonda qizlar va o'g'il bolalar uchun turmush qurish yoshi 18 yosh qilib belgilangan va hozirgacha davom etib kelmoqda. 1962 yil BMT Bosh Assambleyasi nikoh konvensiyasini qabul qildi. Ushbu tashkilotga a'zo barcha davlatlarda turmush qurish yoshini 15 yoshdan qilib belgilangan.

Nikohlanuvchilarning soni avvalo oilalarning soniga ta'sir qiladi. Nikohlanuvchilarning soni bo'yicha respublikamizda Farg'ona viloyatida-18 ming, Surxondaryo-17 ming, Toshkent-16,3 ming ko'rsatkich bilan bu viloyatlar oldingi o'rinlarda kelmoqda. Har ming kishiga to'g'ri keladigan nikohlar soni 1989 yili 10 kishini tashkil etgan bo'lsa, keyingi yillarda bu ko'rsatkich biroz pasayib, 2012 yili 8-9 kishini tashkil etdi. Bu ko'rsatkich bo'yicha Buxoro 9,4 %, Xorazm 9 %, Jizzax 8-9 % viloyatlari oldingi o'rinda turadi.

Nikohlanuvchilarning soni keyingi yillarda birmuncha pasaygan bo'lsa ham, O'zbekistonda har 1000 aholiga to'g'ri keladigan nikohlar soni bo'yicha jahonda oldingi o'rinlardan birini egallaydi. Bu ko'rsatkich, masalan, Buyuk Britaniyada -7,1%, Fransiya -5,8%, Shvetsiyada-4,4%, Janubiy Koreyada -5,2 %, Yaponiyada -6%dir.

Nikohlanuvchilarning soni o'z navbatida tug'ilish darajasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Nikohlanish darajasi har 1000 kishiga mustaqillik yillarida o'rtacha 7,8% (2000-2012 yillar) atrofida barqarorlashdi yoki har yili respublikamizda o'rtacha 150-170 mingtagacha nikohlar qayd etilmoqda.

Ajralish er-xotinning hayotlik davrida nikohning bekor etilishidir. Ajralish murakkab sotsial jarayon bo'lib, qator omillar ta'sirida sodir bo'ladi. Ajralishga juda ko'p omillar ta'sir qiladi; oila tarkibi, sotsial tarkib, bilim darajasi va saviyasi, er-xotin o'rtasidagi munosabatlar va ayniqsa aralash nikohlar ta'sir ko'rsatadi. Masalan, ikki millat vakili turmush ko'rgan joylarda baynalminal oilalarda ajralish ko'rsatkichlari yuqori. (Olmaliq-2,5%. Angren - 2,5 %. Yangiobod-3,6%. Toshkent -2,0%).

Aholisi asosan bir millatli bo'lgan kichik va o'rta shaharlarda ajralish darajasi juda kam. Jumladan, Kosonsoyda-0,2%, To'rtko'lda-0,4%, G'ijduvonda-0,9%, Chimboyda -0,2% ni tashkil qiladi. Ko'rinib turibdiki, umuman olganda, respublikamizda ajralish past darajada ekanligi bilan ajralib turadi.

Ajralish yoshida ham qandaydir qonuniyat kuzatiladi. Chunonchi, eng ko'p ajralganlar 20-24 yoshlarga to'g'ri kelsa, ular jami ajrashganlarning 53% ini, 25-30 yoshdagilar esa 32% ini, 30-34 yoshdagilar esa 8,2 % ini tashkil etadi.

O'zbekiston jahondagi ajralishlar eng kam bo'lgan mamlakatlar qatoriga kiradi. Bu ko'rsatkich shaharlarda 0,7-0,8%, qishloqlarda atigi 0,2-0,5 % ga teng. Angliyada mazkur bu ko'rsatkich 12 %, Germaniyada 14 %, Fransiya va Daniyada 13-14 % ni tashkil qiladi.

Viloyatlar bo'yicha ham ajralish ko'rsatkichlari har xil. Masalan, Qoraqalpog'istonda atigi 0,1 %, Xorazmda 0,2 % bo'lgani holda, aholisi turli millat vakillaridan iborat Navoiyda va Toshkent viloyatlarida 1,0 %, Toshkent shahrida 2,0 ni tashkil qiladi. Nikoh oila munosabatlaridagi har qanday holat, aholi takror barpo bo'lishiga bevosita ta'sir etadi. Keyingi yillarda noqonuniy nikohlardan tug'ilganlar soni ham ko'payib bormoqda. Ular har yili o'rtacha 30-33 ming bolani tashkil qilmoqda.

IKKINCHI BOB. ANDIJON VILOYATIDA NIKOH VA AJRALISH MASALALARI

II.1 Viloyat aholisining nikoh va ajralish koeffisientlari

Andijon viloyati 1941 yil 6 martda tashkil topgan. Viloyatda 14 ta tuman, 2 ta viloyatga va 8 ta tumanga bo'ysinuvchi shahar, 80 ta shahrcha hamda 93 ta qishloq fuqorolar yig'ini hamda 460 ta qishloq aholi manzilgohlari mavjud.

Andijon viloyati aholisi 2013 yil 1- yanvar holatiga ko'ra 2756400 kishiga yetdi. Aholisi soniga ko'ra, O'zbekistonda Samarqandan, Farg'ona va Toshkent viloyatlaridan keyin to'rtinchi o'rinda turadi. Viloyat hududi jihatdan Respublikada eng kichik viloyat bo'lib, Respublikamiz maydonini 0.9 foizni tashkil etadi, Respublikani 9 % dan ortiq aholi yashaydi. Shuni aytish

joizki Andijon viloyatining eng muxim xususiyati shuki, Andijon viloyat aholisi zichligi bo'yicha O'zbekistonda emas, balki Markaziy Osiyoda eng zich hudud bo'lib, xozirda 1 km² ga 600 kishi to'g'ri keladi.

XX asr boshlarida aholining turmush darajasi ancha past bo'lib, aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish darajasi birmuncha past edi. Erkaklarning ayollarga nisbatan ro'li ancha yuqori bo'lib kelgan. Ayollarni jamiyatda va oilada tutgan o'rni ham ancha past darajada bo'lgan. O'sha vaqtda onalar va bolalarni muhofaza qilish va tibbiy xizmat deyarli yo'q edi. Bu jarayonlar XX asr boshlarida, aholini tabiiy o'sishiga juda yamon ta'sir ko'rsatgan. Natijada o'sha vaqtda tug'ilish va o'lim sur'atlari yuqori bo'lib, tabiiy o'sish past darajada edi.

Andijon viloyatida aholini o'sishi, asosan, tabiiy o'sish hisobiga ortmoqda. 1989 yili aholini tabiiy o'sishi 2.75 foiz, 1999 yili 1.47 foiz, 2007 yili 1.7 foiz, 2008 yili 1.97 foiz, 2013 yili esa 1.6 foizga teng bo'ldi. Statistik malumotlardan ko'rib turibdiki 1989 yildan 2013 yilgacha aholini tabiiy o'sishi kamaygan.

Izlanishlar va kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda, jumladan Andijon viloyatida aholini tabiiy o'sishning yuqoriligi yaqin kelajakda ham davom etadi.

Andijon viloyati aholisini yosh va jinsiy tarkibini aniq bilish hozirgi kunda va kelajakda qancha aholi bo'lishligini bilishga yordam beradi. Bu esa nikohlanish jarayonini qay tarzda bo'lishligini bilish imkonini beradi. Yani jinsiy va yosh tarkibiga taaluqli malumotlarni bilish, kelgusi aholini nikoh ko'rsatkichlari va takror barpo qilishni qay darajada bo'lishini oldindan aytib bershni aniqlashga yordam beradi.

Andijon viloyatini aholisi yosh va jinsiy tarkibi o'ziga hos xususiyatga egadir. Viloyatda 2003 yil 49.9 foizni erkaklar, 50.1 foizni ayollar tashkil qiladi, 2013 yilga kelib bu ko'rsatgich erkaklar ulishi 50.1 foizni, ayollarni ulishi 49.9 foizni tashkil qilgan. Shuni aytish o'rinliki, aholi tarkibidagi ayollar salmog'i yuqori bo'lgan qismi 60 yoshdan yuqorilar xisobiga to'g'ri keladi.

Nikoh erkak bilan ayolning tarixan tarkib topgan, jamiyat tomonidan muayyan tartibga solib turadigan o'zaro hamda bolalariga nisbatan munosabatlari shaklidir. Nikoh o'z evolyutsiyasiga, turlariga ega bo'lgan sotsial jarayondir.

Nikohlanish jarayoni turli xil mamlakatlarda o'ziga xos bo'lib, har bir millatning milliy qadriyatlarini aks ettiradi. U insoniyat ijtimoiy taraqqiyotining turli davrlarida har xil ko'rinishlarga ega bo'lib, o'sha davlatlarning qonunlari asosida asrlar davomida o'zgarib, takomillashib borgan. Natijada, o'rtacha turmush qurish jahonning turli mamlakatlarida 12-14 yoshdan to 21-22 yoshgacha belgilangan, ba'zi davlatlar bundan mustasno.

Huquqiy demokratik davlat va bozor iqtisodiyotiga asoslangan fuqarolik jamiyatini qurish bizning asosiy maqsadimiz ekan, shunday jamiyatni, davlatni qurishda, ravnaq toptirishda oilaning o'rni beqiyosdir. Oilada shaxs dunyoga kelib, o'z o'rniga, mavqeiga ega bo'ladi.

Farzand ma'naviy ozuqa va muhitni avvalambor ota-onasi, bobo-buvisi va eng yaqin insonlaridan oladi. Oiladagi muhit, sharoit, ota-onaning farzandiga bo'lgan munosabatidan, shuningdek farzandni oqil va dono qilib tarbiyalashdan, uning kamoli uchun bor kuchini sarf qilishdan iborat bo'lib, har bir ota-onaning burchi, asosiy vazifasi hisoblanadi.

Oila bo'lib yashash barcha mavludotlar orasida faqat inson zotigagina xosdir. Oila - jamiyatning tarkibiy qismi, uning taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatuvchi omildir. Oila avlodlar almashuvi jarayoni ta'sirida doimo o'zgarib turadi. Oilaning demografik faoliyatini belgilab beruvchi avlodlar almashuvi jamiyatning davomiyligini ta'minlaydi. Mustaqillik yillarida ishlab chiqilgan davlat dasturlarining asosiy negizini oilaga qaratilgan samarali demografik siyosat tashkil etadi.

Bugungi kunga kelib, O'zbekistondagi oilalar soni 7 mln. dan oshdi. Har yili respublikada 250-300 mingga yaqin nikoh qayd etiladi. 2000-2012 yillar oralig'ida nikohlar soni 1,8 baravarga ko'paydi, ajralishlar 1,1 baravar kamaydi va ayni paytda mamlakatimiz dunyodagi oilalar eng kam ajralayotgan davlatlardan biri bo'lib hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida kuzatilgan nikohlar soni (2000-2012 yillar)

5-jadval.

	2000	2002	2004	2006	2008	2010	2012
O'zbekiston Respublikasi	168,9	165,6	155,8	208,5	250,2	292,3	299,0
Shu jumladan:					Yilda mingga		
Qoraqalpog'iston Respublikasi	11,4	10,4	9,1	11,3	16,3	17,8	16,7
Andijon	13,6	14,1	12,5	17,2	23,7	27,9	29,0
Buhoro	11,1	10,8	10,1	12,7	14,5	18,3	17,7
Jizzah	6,3	6,1	6,3	7,9	8,8	10,9	11,2
Qashqadaryo	16,1	13,9	12,4	19,6	23,6	26,7	29,6
Navoiy	6,1	5,9	6,0	7,5	7,8	9,6	9,8
Namangan	12,8	12,8	13,6	17,1	20,0	23,7	24,1
Samarqand	19,2	17,9	16,4	26,0	30,5	36,3	34,8
Surhondaryo	11,3	10,7	7,7	13,9	18,7	22,3	26,9
Sirdaryo	4,3	4,2	3,9	4,9	5,7	7,0	7,2
Toshkent	14,6	15,6	16,0	18,8	21,2	24,2	24,1
Farg'ona	17,0	18,7	17,1	22,9	26,4	33,4	32,1
Horazm	10,6	9,8	10,3	12,6	14,3	15,3	16,7
Toshkent shahri	14,5	14,7	14,4	16,1	18,6	18,9	19,1

Jadval O'zbekiston Respublikasi statistika bosh boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzildi.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Andijon viloyatida 2000-2012 yillar mobaynida qayd etilgan nikohlar soni ortib borgan. Jumladan, 2012 yilda nikohdan o'tganlar soni 2000 yilga nisbatan viloyatda 2,1 martaga ortgani kuzatildi. Andijon viloyatida ushbu yillar davomida nikohlanganlar soni ortib borishi boy'icha faqatgina Surhondaryo viloyatidan keyingi ikkinchi o'rinda turibdi.

Shu bilan bir qatorda Andijon viloyatida nikohlanganlar soni Respublika bo'yicha jami nikohlanganlar sonidagi salmog'i ham o'zib bordi. Jumladan, 2000 yilda viloyatda nikohdan o'tganlar Respublikadagi nikohlanganlarni 8 foizini tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2004 yilda 8,2 foizni, 2008 yilda 9,5 foizni va 2012 yilda 9,7 foizni tashkil etdi. Ushbu yillar mobaynida Andijon viloyatidagi nikohlanganlar salmog'i 1,7 foizga ortgan. Shu jumladan nikohlanganlar soni ha yil sayin ortib bordi (4-rasm). Bu holat esa viloyatda nikohlanish koeffitsiyentini o'rganishni naqadar dolzarb vazifa qilib qoyadi.

Andijon viloyatida nikohlanganlar soni

4-rasm




Diagramma Andijon viloyati statistika bosh boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzildi

Andijon viloyatida 2002 yilda jami 14103 ta nikoh qayd etilgan bo'lsa, 2013 yilga kelib bu ko'rsatkich 29761 ta ni tashkil etdi. Boshqacha qilib aytganda, 11 yil davomida viloyatda nikohlanganlar soni 2 barobardan ortiq ko'paygan.

2002-2013 yillar mobaynida Andijon viloyatidanafaqat nokohlanganlar soni balki, nikohlanish koeffitsiyenti ortib borganligi kuzatiladi (5-rasm).

Andijon viloyati aholisi nikohlanish koeffitsiyenti

(har 1000 ta aholiga nisbatan)

5-rasm




Diagramma Andijon viloyati statistika bosh boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzildi

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, viloyatda 2002 yildan 2013 yilgacha nikohlanish ko'effitsiyenti o'sib bordi. Viloyat bo'yicha 2002 yilda nikohlanish ko'effitsiyenti har mingta aholiga nisbatan 6,2 tadan 2013 yilda 10,9 taga ortgan. Bu esa viloyatda tug'ilish ko'rsatkichi yanada ortib borishi mumkin degan hulosaga olib keladi.

Andijon viloyatida nikohlanish ko'effitsiyenti shahar va qishloq aholi punktlari o'rtasida sezilarli tafovut kuzatilmaydi.

Bozor iqtisodiyoti munosabatlarining shakllanishi sharoitida oilalar ba'zi muammolarga duch kelmoqda. Xususan, aholi salomatligi, ayollarning reproduktiv salomatligi, ajralishlar natijasida noto'liq oilalarning ortib borishi, chin yetimlik ko'rsatkichining ortishi va ishsizlik oqibatida tashqi migrasiyaning ortishi kabi muammolar shular jumlasidandir. Oilalarni mustahkamlash, ayollarning mehnat sohasi va jamoat ishlarida faol qatnashishini onalik bilan bog'lab qo'shib olib borishi uchun yaxshi sharoitlar yaratish, onalik va bolalikni ijtimoiy muhofazasini yanada oshirish, reproduktiv salomatlikni mustahkamlashga qaratilgan vazifalar oilani barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

Oila muammolarini o'rganishga bag'ishlangan dastlabki ilmiy tadqiqotlar Yevropada 1889 yilda boshlangan. Oradan 100 yildan ortiq vaqt o'tgan bo'lishiga qaramasdan oila masalalari o'z dolzarbligini yo'qotgani yo'q. Chunki, oila barcha davrlarda ham davlat va jamiyat g'amho'rligiga muhtoj bo'lgan. Shuning uchun ham 1993 yil 20 sentyabrda bo'lib o'tgan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasi yalpi yig'ilishida 1994 yildan boshlab har yili 15 may kunini halqaro Oila kuni sifatida nishonlashga qaror qilindi. Bundan maqsad esa barcha insoniyat, shu jumladan barcha davlat rahbarlari diqqatini inson o'z umrining yarmidan

ortig'ini bevosita o'tkazadigan oilaga va uning mustahkam bo'lishiga qaratishdir. O'zbekiston Konstitusiyasida yozib qo'yilganidek, oilani davlat muxofaza qiladi. Oilani mustahkamlash esa samarali demografik siyosatning vazifalari orasida birinchi navbatda tilga olinadi.

2012 yil O'zbekistonda "mustahkam oila yili", 2013 yil "Obod turmush" yili va 2014 yil "Sog'lom bola" yili deb e'lon qilindi. Andijon viloyatida ham oila mustahkamligi borasida bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz tashabbusi bilan tashkil etilgan O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi va Respublika "Oila" ilmiy-amaliy markazi oila muammolarini ilmiy o'rganish, tahlil qilish va ularni bartaraf etish yuzasidan amaliy taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish, muammolarni hamkorlikda hal qilish bo'yicha faoliyat yuritib kelmoqda. Jumladan, Qo'mitaning "Xotin-qizlarga oid salbiy ko'rsatkichlar tahlili va ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish borasida olib borilayotgan ishlar to'g'risida"gi Boshqaruv yig'ilishi qarorining ijrosi yuzasidan Andijon viloyatida ayollar jinoyatchiligidan oshish sabablari va ko'rsatkichi oshgan mahallalardagi salbiy holat sodir etilgan oilalarning ma'naviy muhiti va umumiy holati o'rganilib, jinoyatlarga sabab bo'lgan omillar tahlil etildi.

Respublikada oilaning barqaror rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan omillarni o'rganish maqsadida Navoiy, Jizzax, Sirdaryo, Farg'ona va Andijon viloyatlarida ajralish holatlari o'rganilib, ilmiy tahlil etildi.

Respublika miqyosida "Yosh oila: muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari" mavzusida sotsiologik so'rov o'tkazildi. Oila-nikoh munosabatlarini mustahkamlash, oilada farzand tarbiyasiga e'tiborni kuchaytirish, ularning ma'naviy, psixologik va huquqiy madaniyatini yuksaltirish maqsadida "Ota-onalar universiteti – ota-onalar savodxonligini oshirish maktabi" va "Oilani mustahkamlashda mahallaning o'rni va ahamiyati" nomli uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqildi.

Andijon viloyatida nikohlanganlar soni va uning mamlakatdagi salmog'i ortib borishi bilan bir qatorda ajralishlar sonida ham o'zgarishlar kuzatiladi.

O'zbekiston Respublikasi va viloyatlarda ajralishlar soni

6-jadval.

(yilda mingta)

Yillar	2000	2002	2004	2006	2008	2010	2012
O'zbekiston Respublikasi	19,9	18,3	17,4	16,1	16,4	17,8	17,9
Shu jumladan:	0,6	0,6	0,7	0,7	0,5	0,9	0,8

Qoraqolpog'iston Respublikasi	1,1	0,9	0,9	0,6	0,8	1,4	1,5
Andijon	1,2	1,0	1,0	1,1	0,8	0,9	1,0
Buhoro	0,7	0,5	0,5	0,5	0,5	0,5	0,4
Jizzah	0,6	1,0	0,9	0,9	1,0	0,8	0,8
Qashqadaryo	1,1	0,8	0,8	0,6	0,6	0,5	0,7
Navoiy	1,2	1,0	1,0	1,1	1,8	1,7	1,5
Namangan	1,8	1,2	1,4	1,6	1,8	1,9	1,8
Samarqand	0,9	0,7	0,6	0,4	0,6	0,5	0,7
Surhondaryo	0,6	0,6	0,5	0,5	0,5	0,6	0,6
Sirdaryo	2,6	2,7	2,6	2,1	2,2	2,2	2,2
Toshkent	2,2	1,7	1,6	1,1	1,1	1,5	1,7
Farg'ona	0,7	0,7	0,7	0,8	0,7	0,9	0,6
Horazm	4,6	4,9	4,2	4,1	3,5	3,5	3,6

**Jadval O'zbekiston Respublikasi statistika bosh boshqarmasi ma'lumotlari asosida
tuzildi.**

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2000-2012 yillar mobaynida viloyatda ajrashganlar soni 1,2 mingtdan 1,0 mingtaga kamaygan. Viloyatda ajralishlar soni Respublikada kuzatilgan ajralishlar sonidagi ulushi ushbu yillar davomida quyidagicha o'zgardi. 2000 yilda viloyatda sodir bo'lgan ajralishlar mamlakatdagi ajralishlarni 5,5 foizini tashkil etdi. Ushbu ko'rsatkich 2004 yilda 5,2 foiz, 2008 yilda 4,8 va 2012 yilda 8,3 foizini tashkil etgan. 2012 yilda ajlashlar salmog'iga ko'ra viloyat Toshkent, Samarqand va Farg'ona viloyatlaridan keyingi tortinchi o'rinda turibdi. 2000 yilda Toshkent, Samarqand, Namangan, Buhoro, Farg'ona viloyatlaridan keyingi o'rinda turgan. Boshqacha qilib aytganda, viloyatda ajralishlarning mamlakatda kuzatilgan ajralishlar sonidagi salmog'i 2000-2012 yillarda 3,2 foizga ortganligi viloyatda ajralish va uning sabablarinio'rganish muammosi naqadar dolzarb vazifa ekanligini bildiradi.

Bundan tashqari, ushbu yillar davomida viloyatda ajralish koeffitsiyenti o'rtib borganini kuzatish mumkin (6-rasm).

Andijon viloyati aholisi ajralish koeffitsiyenti

6-rasm




Diagramma Andijon viloyati statistika bosh boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzildi.

Andijon viloyatida 2000 yilda ajralish koeffitsiyenti har mingta nikohga nisbatan 34,5 tani tashkil etgan bo'lsa, 2012 yilda 50,3 tani tashkil etdi, yoki ushbu yillar davomida ajralish koeffitsiyenti ikki barobarga ortdi.

II.2 Nikoh va ajralishning hududiy tafovutlari

Andijon viloyati aholisining miqdoriy o'sishida o'ziga xos xususiyatlar mavjud. Umuman olganda, viloyat aholi sonining o'sishini quyidagi uch davrga ajratish o'rinalidir:

- Aholi o'sishi respublika ko'rsatkichiga nisbatan past bo'lgan davr (1959— 1980 yillar);
- Viloyat va respublika aholisi o'sishi tenglashgan davr (1980-1992 yillar);
- Aholi o'sishi nisbatan yuqori bo'lgan davr (1993—2013 yillar).

Aholi soni, uning tabiiy ko'payishi, o'sishi, harakati bo'yicha viloyat tumanlari bir — biridan ancha farq qiladi. Masalan, Izboskan, Paxtaobod, Oltinko'l Marhamat, Asaka tumanlarida aholi sonining o'sishi yuqoriroq; 1979-2013 yillar mobaynida mazkur tumanlarning aholisi 1,5 barobar ko'paygan.

Demografik salohiyati bo'yicha Shahrixon tumani viloyatda eng katta bo'lib, uning aholisi 250,8 ming kishini tashkil etgan bo'lsa, aksincha, Ulug'nor tumanining aholisi atigi 51,5 ming kishiga teng. Xuddi shunday, aholisi kam bo'lgan tumanlardan biri Bo'z tumani bu erda 59,3 ming kishi yashaydi. Aynan ana shu tumanlar aholisining o'sish sur'ati nisbatan past bo'lgan hududlar guruhiga kiradi.

Viloyat shahar va qishloq aholisining o'sish sur'atlari keyingi vaqtlarda respublika shahar va qishloq aholisi ko'rsatkichlariga mos holda kamayib barqarorlashmoqda. Bunday holatni viloyatda aholining erga va uy —joyga bo'lgan talabini qondirishning qiyinlashgani hamda er zahirasiining etishmasligi bilan izoxlash mumkin.

Mavjud ma'lumotlarning taxlilidan ko`rinib turibdiki, xuddi shu yillarda shahar aholisining salmog'i ham ma'lum darajada ortib borgan. Shaharlarda aholi turmush darajasining yaxshilanib borishi Andijon aglomeratsiyasi jarayonini kuchayishining shakllanishi bunga qisman sabab bo'lgan, deb baholasak to'g'ri bo'ladi. Keyingi yillarda viloyat shaharlarida hayotiy zarur inshootlarning qurib bitkazilishi ham shahar aholisi sonining ortishiga olib keldi.

Andijon viloyati aholisi tuman va shaharlarda aholi soni va tabiiy o'sishidagi bunday nomutanosibliklar nikohlanish va ajralish koeffitsiyentini hududiy tafovutlar yuzaga kelishiga olib keladi. Jumladan, viloyat tuman va shaharlarida nikohlanish koeffitsiyenti

Andijon viloyatida nikohlanish koeffitsiyenti (2002-2013 yillar)

7-jadval

№	Tuman va shaharlar	2002	2003	2004	2005	2006	2007	2008	2009	2010	2011	2012	2013
1	Andijon	5,9	4,9	4,8	5,3	6,5	8,1	8,4	10,5	9,7	8,7	10,1	10,1
2	Honobod	4,3	4,1	3,5	4,6	5,6	10,2	11,3	11,4	9,8	8,5	11,9	11,9
	Jami shahar	5,8	4,8	4,7	5,5	6,4	8,3	8,6	10,5	9,7	8,7	10,2	10,3
1	Andijon	6,6	6,3	4,7	5,9	6,3	8,3	8,9	12,7	11,4	9,9	11,2	11,2
2	Asaka	5,2	4,5	4,0	6,5	6,7	9,1	10,1	12,4	12,1	11,8	11,9	12,2
3	Baliqchi	6,5	6,6	6,6	9,5	9,2	7,8	9,9	10,7	10,9	9,9	10,1	10,5
4	Bo'z	6,7	6,6	6,1	7,6	8,5	11,3	9,9	10,3	10,8	9,5	10,2	10,5
5	Buloqboshi	5,9	6,4	5,9	7,3	7,9	8,9	9,8	10,3	10,4	9,8	10,4	10,9
6	Jalaquduq	5,8	5,0	3,8	5,8	7,2	8,7	8,3	9,2	9,1	10,1	10,9	11,4
7	Izboskan	6,7	5,8	5,5	7,1	7,4	10,4	9,6	12,6	11,9	10,4	10,9	11,5
8	Ulug'nor	5,8	7,0	5,5	7,1	6,9	12,1	8,7	11,1	11,2	10,0	11,4	12,0
9	Qo'rg'ontep	6,0	6,6	5,7	6,4	7,1	10,3	10,4	13,4	10,6	9,2	9,7	10,1
10	Marhamat	6,1	6,5	6,5	7,3	7,5	8,9	10,4	11,5	11,5	10,1	10,7	11,2
11	Oltinko'l	7,7	7,1	6,8	8,1	8,5	8,9	9,2	10,1	10,6	9,5	9,8	10,1
12	Paxtaobod	6,4	6,6	6,1	7,5	7,9	9,7	9,4	11,7	11,3	10,5	11,3	11,9
13	Ho'jaobod	5,7	6,6	5,9	6,4	6,0	8,1	9,4	13,7	12,5	11,0	11,4	11,9
14	Shahrihon	4,6	6,5	5,6	6,1	6,3	9,1	9,8	12,1	9,4	8,6	8,9	9,2
	Jami tuman	6,3	6,1	5,5	6,9	7,3	9,4	9,6	11,3	11,2	9,9	10,6	11,0
	Viloyat	6,2	5,9	5,3	6,7	7,1	9,1	9,4	11,2	10,7	9,8	10,5	10,9

Jadval Andijon viloyati statistika bosh boshqarmasi ma'luotlari asosida tuzildi

Jadval ma'lumotlaridan ko`rinib turibdiki, Andijon viloyatida 2002-2013 yillar davomida nikohlanish koeffitsiyenti ortib bordi. Har mingta aholiga nisbatan hisoblaganda Ulug'nor, Asaka tumanlari va Honobod shaharlarida nikohlanish koeffitsiyenti eng yuqori bo'lgan. Nikohlanish koeffitsiyentining eng past ko'rsatkichlari esa Qo'rg'ontepa, Oltinko'l, Shahrihon va Baliqchi tumanlariga to'g'ri keladi. Shu o'rinda, yana shuni takidlab o'tish lozimki, viloyat tuman va

shaharlari o'rtasida nikohlanish koeffitsiyenti katta tafovut qilmaydi. Viloyat tuman va shaharlarida nikohlanish koeffitsiyenti 9-12 promilleni tashkil etmoqda.

Andijon viloyatida nikohlanganlar soni (2002-2013 yillar)

8-jadval

№	Tuman va shaharlar	2002	2003	2005	2006	2007	2008	2009	2010	2011	2012	2013
1	Andijon	2050	1716	1907	2337	2955	3127	3974	3670	3433	3972	4011
2	Honobod	155	149	167	203	373	421	426	369	325	458	465
	Jami shahar	2205	1865	2174	2540	3328	3548	4400	4039	3758	4430	4476
1	Andijon	1227	1184	1143	1243	1660	1839	2671	2466	2187	2482	2512
2	Asaka	1196	1079	1567	1649	2264	2582	3212	3201	3297	3346	3423
3	Baliqchi	912	936	1407	1367	1184	1546	1702	1762	1699	1748	1817
4	Bo'z	337	335	400	454	620	554	591	633	588	634	654
5	Buloqboshi	614	668	785	872	990	1106	1181	1218	1222	1299	1365
6	Jalaquduq	805	702	831	1042	1285	1242	1406	1419	1648	1784	1876
7	Izboskan	1178	1024	1288	1373	1960	1844	2457	2360	2127	2234	2365
8	Ulug'nor	254	312	325	327	574	421	549	567	515	589	625
9	Qo'rg'on tepa	918	1024	1027	1142	1701	1754	2311	1876	1730	1820	1910
10	Marhamat	770	831	955	993	1201	1419	1598	1622	1523	1613	1695
11	Oltinko'l	956	892	1057	1131	1217	1284	1429	1537	1442	1490	1543
12	Paxtaobod	873	916	1079	1162	1442	1419	1822	1792	1745	1874	1969
13	Ho'jaobod	464	540	541	518	704	833	1241	1155	052	1096	1156
14	Shahrihon	964	1397	1355	1424	2084	2306	2901	2300	2206	2287	2375
	Jami tuman	11898	11840	13660	14697	19186	20100	24071	23908	22981	24296	25285
	Viloyat bo'yicha jami	14103	13705	15834	17237	22514	23656	28471	27947	26739	28726	29761

Jadval Andijon viloyati statistika bosh boshqarmasi ma'luotlari asosida tuzildi

Andijon viloyati tuman va shaharlarida aholi soni jihatdan farq qilishi, nikoh yoshidagi aholi soniga, hususan nikohlanganlar sonining turlicha bo'lishiga olib kelgan.

Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek oila jamiyatning negizi. Bizning davlatimizni xam katta bir oila deb tushunish mumkin va lozim. Bunda o'zaro xurmat va qattiq tartib bo'lmasa, oilaning barcha a'zolari uz burchlarini ado etmasa, bir-biriga nisbatan ezgulik bilan mexr-oqibat

ko'rsatmasa yaxshi va munosib tarzda yashash mumkin emas. Oila turmush va vijdon qonunlari asosida quriladi, uzining ko'p asrlik mustaxkam va ma'naviy tayanchlariga ega buladi. Oilada demokratik negizlarga asos solinadi, odamlarning talab-extiyojlari va kadriyatlar shakllanadi. O'zbeklarning aksariyati uzining shaxsiy farovonligi to'g'risida emas, balki oilasining qarindosh-urug'lari va yaqin odamlarining, qo'shnilarining omon-esonligi tugrisida g'amxurlik qilishni birinchi o'ringa qo'yadi. Bu esa eng oliy darajada ma'naviy qadriyat, inson qalbini gavxaridir. Yurtboshimizning bu fikrlari uzbek oilasining uziga xos xususiyatining asosini tashkil etadi. Yurtboshimizning tarakkiyotda jamiyatimiz asosi- o'zbek oilalarining ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy xolati muxim rol o'ynamokda, chunki oilalarnish xar tomonlama yuksalishi jamiyatning yuksalishi demakdir.

Xuddi shu ma'noda kelajagimiz bo'lmish yosh avlod va uning taraqqiyoti davlat ahamiyatiga molik masaladir. Ikkinchi tomondan jamiyatning oila va oilaviy tarbiyaga bo'lgan talabi xam kun sayin ortib bormoqda. Ota-onalarning oilada bolalarni xar tomonlama yetuk-barkamol taraqqiyotiga oid layoqatni oshirish xozirgi kunning dolzarb masalasidir. O'zbek oilasining dunyodagi boshqa oilalarga o'xshash tomonlari ko'p. lekin shu bilan birga uning uziga xos jixatlari xam yo'q emas. O'zbek oilalarining o'ziga xos tomoni-xayo-iboning kuchliligidadir. Ma'naviyatsiz moddiy farovonlikka xam umumtaraqqiyotga xam erishib bo'lmaydi. Ma'naviy qashshoklik milliy tanazzulga olib boradi. Shu manoda ajralish va uning sabablarini hududiy sabablarini o'rganish, tahlil qilish va ilmiy hulosalar ishlab chiqish hozirgi kundagi dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Viloyat tuman va shaharlari aholi soni, tabiiy o'sishi turichaligidan nikohlanish ko'effisiyentida hududiy tafovutlari kuzatiladi. Shuningdek ajralish ko'effisiyenti va ajralishni kelib chiqish sabablariga ko'ra ham hududiy farqlar seziladi.

Bunday farq binchi navbatda qishloq tumanlari va shahar aholisida kuzatiladi (9-jadval).

Andijon viloyati aholisining 2002-2012 yillarda ajralish ko'effisiyenti

9-jadval

		2005	2006	2007	2008	2009	2010	2011	2012
1	Andijon shahar	53.5	44.9	67.0	40.9	41.7	64.5	132.5	56.2
2	Honobod shahar	83.8	9.3	29.5	26.1	42.3	65.0	153.8	53.2
	Жами шахар	56.0	45.3	62.8	39.2	41.9	64.8	134.4	64.5
3	Andijon	21.9	36.2	47.0	25.6	31.5	56.0	75.0	45.3
4	Asaka	79.1	64.9	30.3	40.0	25.2	34.7	59.4	42.2
5	Baliqchi	19.2	17.6	26.0	44.0	33.1	44.3	50.0	45.1
6	Bo'z	15.0	30.8	27.4	34.3	37.2	49.0	71.4	48.0
7	Buloqboshi	38.2	25.2	43.4	40.7	44.9	53.4	52.4	51.4

8	Jalaquduq	16.8	28.8	31.1	33.0	20.6	27.5	34.0	28.0
9	Izboskan	57.5	27.0	26.5	33.7	43.1	70.0	79.0	69.6
10	Ulug'nor	30.8	27.5	15.7	14.3	9.1	31.7	54.4	32.6
11	Qo'rg'ontepa	37.0	30.6	30.0	22.2	13.8	37.9	47.4	38.7
12	Marhamat	51.3	39.3	27.5	63.9	31.3	47.5	82.1	50.6
13	Oltinko'l	37.8	27.4	36.2	46.0	39.9	39.7	58.3	40.5
14	Pahtaobod	30.6	31.8	22.9	31.0	17.0	49.1	71.1	50.3
15	Ho'jaobod	31.4	34.7	42.6	28.8	22.0	46.8	44.7	42.4
16	Shahrihon	50.2	36.5	16.8	24.7	24.8	48.3	49.4	45.3
	Tumanlar bo'yicha	40.3	34.0	30.5	34.9	30.1	45.4	59.2	45.1
	Viloyat bo'yicha	42.3	35.0	35.3	35.6	30.2	49.1	70.3	50.3

Jadval Andijon viloyati statistika bosh boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzildi.

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, tahlil qilinayotgan davr davomida shahar va qishloq tumanlari o'rtasida ajralish koeffitsiyentini farqini kuzatish mumkin. Buni avvalo, shahar aholisi milliy tarkibi turlichaligi, qishloq tumanlarida ajralishga nisbatan juda salbiy munosabatda qaralishligi va boshqa omillar bilan izohlash mumkin.

Shuningdek, barcha tuman va shaharlarda ajralish koeffitsiyenti yillar mobaynida keskin o'zgarishlar ham kuzatiladi. M: Ulug'nor tumanida 2009 yilda har mingta nikohga nisbatan 9,1 ta ajralish to'g'ri kelgan bo'lsa, 2010 yilda ajralish koeffitsiyenti 31,7 promillega trng bo'lgan. Bunday nomutanosiblik bo'lishi ajralish tug'ilish, o'lim kabi fiziologik jarayon emas, balki, ijtimoiy munosabatlar bilan bog'liq holda sodir bo'lishi orqali izohlash mumkin.

II.3 Viloyatda aholining nikoh va ajralish ko'rsatkichlari: muammolar va yechimlar

Inson hayotining ko'p qismini o'z oilasida o'tkazadi. Shu boisdan bola turmushning murakkab tomonlari bilan xuddi shu ota-ona maskanida tanishadi. Shuning uchun ham oila jamiyatning boshlang'ich bo'g'ini sifatida bolalarning axloqi, yurish-turish, xatti-harakati, e'tiqod va dunyoqarashiga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishi hamda ularni turmush qurishga tayyorlab borishi lozim.

Oilaning miqdoriy o'zgarib borishi va tashkil topishidagi demografik omillarni, etnodemografik tarkibini va uning avlod yaratish, ya'ni tug'ilish jarayonini demografiya o'rganadi. Demografiya oilani o'rganar ekan, asosiy e'tiborni uning avlod yaratuvchilik, jamiyatni davom ettiruvchilik faoliyatiga qaratadi.

Oila - insonlarning tabiiy biologik, nikoh, qon-qarindoshlik, iqtisodiy, huquqiy, ma'naviy munosabatlarga asoslangan, turmush birligi va o'zaro javobgarlik orqali bog'langan ijtimoiy guruhdir.

Oila vazifalarini uch guruhga ajratish mumkin: Bular demografik, iqtisodiy va ijtimoiy vazifalardir. Oilaning demografik vazifasiga uning demografik faoliyati (oilada farzandlarning tug'ilishi, avlod yaratish) kiradi. Uning ijtimoiy vazifasiga oilada farzandlarni tarbiyalash, inson sifatida kamolga yetkazish, ularning tabiatga, jamiyatga nisbatan va o'zaro munosabatlarini shakllantirish, dam olish va salomatligini tiklash kabilar kiradi. Oilaning iqtisodiy vazifasiga esa oila a'zolarini oziq-ovqat, kiyim-kechak va boshqa yashash uchun zarur bo'lgan moddiy vositalar bilan ta'minlash kiradi. Umuman, oila o'zining mavjudligini saqlab qolishi uchun yuqorida sanab o'tilgan vazifalarni bajarishi lozim. Bu vazifalar bir-biri bilan bog'liq holda rivojlanadi. Agar oilaning demografik vazifasi bajarilmasa yangi oilalar shakllanmaydi, natijada oila davom etmaydi.

Ajralishlar natijasida noto'liq oilalarning ortib borishi, chin yetimlik ko'rsatkichining ortishi kabi muammolar yuzaga keladi. Oilalarni mustahkamlash, ayollarning mehnat sohasi va jamoat ishlarida faol qatnashishini onalik bilan bog'lab qo'shib olib borishi uchun yaxshi sharoitlar yaratish, onalik va bolalikni ijtimoiy muhofazasini yanada oshirish, reproduktiv salomatlikni mustahkamlashga qaratilgan vazifalar oilani barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

O'zbekistonda har bir oila, har bir insonning turmush farovonligi, fuqarolar totuvligini mustahkamlashga qaratilgan, ularni huquqiy muhofaza qilishga qaratilgan jarayon amlaga oshirilmoqda. Har bir oila har bir mehnatkash tinch-totuvlik va to'kin-sochin yashasa respublikamiz ozod va boy bo'ladi, gullab yashnaydi. Ota-onalar va bolalar har tarafлама jipslashgan oila birligini tashkil etadi. Ular o'rtasida juda yaxshi oilaviy munosabatlar mavjuddir, bu shaxslar oilaning yadrosini ya'ni o'zagini tashkil etadi.

Nikoh erkinligi ajralib ketish erkinligini ham ko'zda tutadi. Nikohni ro'yxatga olish kabi ajralishni rasmiylashtirish ham davlat nazorati ostidadir. Vaqt o'tishi bilan tashkil topgan oilalarning bir qismi er yoki xotinning vafoti tufayli, yana bir qismi esa turli xil kelishmovchiliklar sababli bekor qilinadi. Ajralish - murakkab sotsial jarayon bo'lib, qator omillar ta'sirida sodir bo'ladi. Ularga jamiyatda nikohning tutgan o'rni, nikoh turlari, har bir davlatda nikoh va ajralish haqidagi mavjud qonunlar, davlat tomonidan oila mustahkamligi borasida olib borilayotgan siyosat, ayollarning ijtimoiy hayotda tutgan o'rni, farzandsizlik, oila turmush tarzi, din, urf-odatlar, alkogolizm va narkomaniya kabilarni kiritish mumkin. Ushbu omillar ta'sirida jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlarida, davlatlarda, xalqlarda va aholi guruhlarida ajralish darajasi turlicha bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksiga muvofiq nikoqni bekor qilish er-xotindan biri yoki ikkalasining arizasiga binoan sud idoralari va voyaga yetmagan bolalari bo'lmagan er-xotinning o'zaro roziligi bo'lganda fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlari(FXDYo) tomonidan rasmiylashtiriladi.

Ajralish sabablari orasida eng katta ko'rsatkichni er-xotin dunyoqarashining mos kelmasligi, ya'ni xarakterlarining bir-biriga zid ekanligi tashkil etadi. Ajralganlarning ko'pchiligi yosh oilalar bo'lib, ularda hayotiy ko'nikma va tajriba yo'qligi hamda bir-biriga yon bosishni xohlamasligi ajralish uchun asosiy sabablaridan biriga aylangan. Aholi orasida ma'naviy-ahloqiy me'yorlarning biroz susayishi natijasida er yoki xotin bir-biriga xiyonat qilmoqda. Bunday holatlarning uchdan ikki qismidan ortig'i erkaklar tomonidan sodir etilsa, 30 foizi esa ayollar tomonidan yo'l qo'yilgan salbiy hollar bilan izohlanadi.

Ajralishlarga tobora avj olib ketayotgan ichkilik va giyohvandlik ham sabab bo'lgan. Erkaklarning spirtli ichimlik va giyohvandlik moddalariga ruju qo'yishi hamda oilaga nisbatan e'tiborsizligi tufayli oilalar ajralib ketmoqda. Oila a'zolari orasida o'zaro hurmat, odob kabi insoniy fazilatlariga asoslangan munosabatlarning barham topishi ham ajralishga sabab bo'lgan. Ajralish sabablari orasida qaynona-kelin va boshqa oila a'zolari o'rtasida bir-birini mensimaslik va o'zaro hurmat yo'qolganligi kabi nosog'lom oila muhitidagi holat bora-bora er-xotin ajralishi bilan yakunlanmoqda. Umuman, oila qurishdagi ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy yetukligining past darajadali oilaning muvoffaqiyatli yashab ketishida bir qancha muammolarni yuzaga keltirgan va ajralishlarga olib kelgan.

Andijon viloyatida 2011 yilda qayd etilgan ajralishlarni sabablari tahlili shuni ko'rsatadiki, viloyatda ajrashganlarning asosiy qismi, qariyb 34 %i 3-5 yil yashaganlar o'rtasida, 32,5%i 5-10 yil yashaganlar o'rtasida kuzatilmoqda. 17,3 %i 1-3 yil yashaganlar o'rtasida kuzatilmoqda. Agarda, oila ajralishi ertaroq sodir bo'lishi va sud orqali ajrim ancha muddat keyin amalga oshirilayotgani etiborga olinsa, 1-3 yil yashab ajrashganlar salmog'i yanada ortishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, ajralishlar asosan 3-5 yilgacha bo'lgan davr ichida sodir bo'layotganini kuzatish mumkin.

Andijon viloyatida sodir bo'lgan ajralishlar sabablari

10-jadval

	Er shariy nikoh asosida boshqa oila qurib olganligi uchun	Erkakning oilaga nisbatan mas'uliyatsizligi tufayli	Ayolning salomatligi yaxshi bo'lmaganligi sababli	Qaynona kelin munosabatlarining yaxshi emasligi tufayli	MFY qoshidagi "yarashtiruv komissiyasi" yetarli faoliyat olib bormaganligi sababli	jami
1-3 yil yashaganlar	105	27	16	40	15	203
3-5 yil yashaganlar	215	78	20	80	6	399
5-10 yil yashaganlar	243	91	15	28	5	382
10-15 yil yashaganlar	131	42	5	8	4	190
Jami	694	238	56	156	30	1174

Jadval Andijon viloyati fuqarolik sudi statistik ma'lumotlari asosida tuzildi.

Ajralish sabablari bo'yicha tahlil qilinganda, ajralishlarning qariyb 60 % i oilada erni shariy nikoh asosida boshqa oila qurishi bilan bog'liq bo'lmoqda. Shariy nikoh asosida boshqa nikoh qurganlarning 35 % i 5-10 yil birga yashagan oilalarda, 31 %i 3-5 yil birga yashagan oilalar o'rtasida sodir bo'lgan.

Oilada qaynona-kelin o'rtasida kelishmovchilik yuzasidan sodir bo'lgan ajralishlar jami ajralishlarni 13,3 %ini tashkil etadi. Ushbu sababga ko'ra ajrashganlarni 77 %i 5 yilgacha turmush qurganlar o'rtasida kuzatilgan.

Ajralishlarning atigi 2,5 %i mahalla fuqarolar yig'inidagi yarashuv komissiyasi faoliyati yetarli faoliyat olib bormaganligidan kuzatilgan bo'lsada, lekin bu ajralishlarning yarmi 1-3 yil birga yashagan yosh oilalarda kuzatilganligi achinarli holatdir.

Keyingi yillarda mamlakatda oila mustahkamligi, barqarorligi borasida katta ko'lamdagi ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada amalga oshirilayotgan ishlar albatta o'zining ijobiy natijalarini ko'rsatadi. Shu o'rinda oila mustahkamligini oshirish, barqaror rivojlanishini ta'minlash, oilada sog'lom muhitni yaratish, sog'lom va barkamol avlod tarbiyalash ajralishlarni oldini olish va kamaytirishga qaratilgan ishlarni amalga oshirishni taqazo qiladi.

Ushbu BMI ni yoritish davomida quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

- Bugungi kunda nikohga kirayotgan yoshlarni nikohga kirish yoshini uzaytirish maqsadga muvofiqdir. Inson yoshi ulg'aygan sari uning dunyoqarashi, tafakkuri kengayib, fikri teranlashib, mustaqil fikrga ega bo'ladi. Shu jihatdan kechroq oila qurish oila mustahkamligiga sabab bo'luvchi omillardan hisoblash mumkin. Bundan tashqari oila a'zolari o'zlarini kasb-koriga, ish faoliyatiga ega bo'ladi va bu holar oilani iqtisodiy jihatdan ota-onasiga tayanmasdan mustaqil xo'jalik yuritishiga imkon yaratadi.
- Nikohga kiruvchi yoshlarni "Oila" to'g'risidagi savodhonligini yanada oshirib borish maqsadga muvofiq. Buning uchun akademik litsey va kasb-hunar kollejarini bitiruvchi kurslarida va oila o'quv yurtlarini birinchi kursida "Oila maktabi" o'quv fani sifatida o'qitilishi lozim.
- O'zbekiston Respublikasi "Oila kodeksi"ga muvofiq nikohga kiruvchi yoshlar FHDYo bo'limlariga ariza bilan murojaat etadi. Ariza bilan murojaat qilgandan 1 oy muddatdan so'ng nikoh qayd etilishi belgilab qo'yilgan. Fikrimizcha, mana shu 1 oy muddatni yanada uzaytirish maqsadga muvofiq. Ayni shu vaqtda nikohga kiruvchi yoshlar bir-birlarini harakterlarini yanada tushinib oladilar va oilaviy kelishmovchiliklarni oldi olinar edi.
- yoshlarni hayotga tayyorlash, oilada yechim topmayotgan muammolarni mahalla kengashlari orqali hal etish, "Yarashtiruv komissiyalari" faoliyatini yaxshilash, va MFY rolini oshirib borish yanada maqsadga muvofiq bo'ladi.

HULOSA

Mustaqillik tufayli milliy va diniy qadriyatlarga keng yo'l ochdi. Hozirgi kunga kelib, bir tomondan, qonunchiligimiz, boshqa tomondan ota-bobolarimiz amal qilib kelgan qadriyatlar uyg'unlashib, mamlakatda mustahkam oilalar barpo bo'lmoqda. Oila mustahkamligi avvalo er-xotin uchun zarur bo'lsa, shunday oilada kamol topgan avlodlar jamiyat uchun muhimdir. Mustahkam oila jamiyat barqarorligi, uning buzilmas va yengilmasligining asosiy bo'g'indir. Zero ahil-totuv, ma'naviyati etuk oilalarda kamol topgan jasur, mard, ilmu zakovati yuksak insonlar o'z vatani, qolaversa butun jamiyat taraqqiyotida etakchi o'rinlarni egallaydi.

Nikoh insonlar o'rtasidagi munosabatlar ichida eng muqaddasi hisoblanadi. Nikoh bilan qurilgan oilaning saodati va bardavomligi nikohlanuvchilarning o'zaro bir-biriga samimiy munosabati, ularning odobi, axloqi, shaxsiy fazilatlarini bilan chambarchas bog'liqdir.

Statistik ma'lumotlarga tahlilga ko'ra, mustahkam oilalar qatoriga aksariyati yoshi 35-40 dan oshganlar to'g'ri kelib, yoshlar, ayniqsa voyaga etmaganlar o'rtasidagi nikohlar ajralish bilan yakunlanmoqda. Bu xolatlarga e'tibor bermaslik kelgusi avlodlar, xozirgi yashab turgan

farzandalar kelajagiga salbiy ta'sir etishi mumkin.

Respublikamiz Konstitutsiyasining 63-moddasida «Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega», degan qoida mustahkamlab qo'yilgan.

Voyaga etmaganlar o'rtasidagi nikohga yo'l qo'ymaslik uchun bunday nikohlarning kelib chiqish sabablari va uni bartaraf etish yo'llarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. Mamlakatimiz taraqqiyoti va xalqimizning hayot darajasini yuksaltirish- barcha demokratik yangilanish va iqtisodiy islohatlarimizning pirovard maqsadidir.T. «O'zbekiston», 2007.
2. Karimov I. A. Yuksak manaviyat- yengilmas kuch . –T.: “Manaviyat”, 2008
3. Abdurahmonov Q. Abduramanov Q. “Demografiya” Toshkent, 2010
4. Asanov G., Nabixonov M., Safarov I. “O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi” T. O'qituvchi, 1994 y
5. Asanov G. Sotsial iqtisodiy geografik lug'at. Toshkent, “O'qituvchi” 1990 y
6. Bo'rieva M. “Demografiya asoslari” (ma'ruzalar matni). T. 2001 y.
7. Bo'riyava M.”O'zbekistonda oila demografiyasi” T.: 1997 y
8. Vahobov H., Tillaboeva M.. “Iqtisodiy geografiya asoslari”. T. O'qituvchi, 2001 y.
9. Musaev P.. Musaev J. «O'zbekiston iqtisodiy ijtimoiy geografiyasi» 8-sinf darsligi. T. “O'qituvchi” 2008 y.
10. Nazarov A. «Ijtimoiy geografiya». T. , Universitet, 2000 y.
11. Soliev A. “Shaharlar geografiyasi”. T. 2000 y.
12. Qayumov A. Yakubov O'. “Aholi geografiyasi va demografiya asoslari” Toshkent, 2010
13. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi Toshkent 2004 y “O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi” nashriyoti

Internet saytlari:

1. www.geografiya.ru
2. www.naesmi.uz
3. www.referat.arxiv.uz
4. en.wikipedia.org

Foydalanilgan manbalar

1. Andijon viloyati statistika bosh boshqarmasi ma'lumotlari
2. Andijon viloyati hokimligi ma'luotlari
3. Andijon viloyati fuqarolik sudi statistik ma'lumotlari